

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar va geografiya**

**Fakulteti dekani:**

\_\_\_\_\_ dots. V.Azizov  
“ \_\_\_\_\_ ” 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”  
kafedra mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. B.Baratov  
“ \_\_\_\_\_ ” 2012 yil**

**TABIIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKULTETI**

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi  
bitiruvchisi**

**MAZAIROV BAXTIYO'R MAXAMATMURDOVICHNING**

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH DAVRIDA QISHLOQ  
XO'JALIGIDAGI KOOPERATSION ALOQALAR mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar :**

**g.f.n., dots. SH.Jumaxanov**

**Namangan – 2012**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH DAVRIDA QISHLOQ XO’JALIGIDAGI KOOPERATSION MUNOSABATLARNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>8</b>
1.1.O’zbekiston qishloq xo’jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishlari.....	8
1.2. Agrar sektorda kooperatsiya munosabatlari rivojlanishining xorijiy mamlakatlar tajribalari.....	14
1.3. Qishloq xo’jaligida kooperatsion aloqalarni samaradorligini baholash uslubiyati.....	16
<b>II-BOB. ERKIN RAQOBATCHILIK MUHITIDA QISHLOQ XO’JALIGIDAGI KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>22</b>
2.1.Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va qishloq xo’jaligini rivojlantirish omillari.....	22
2.2.Namangan viloyati qishloq xo’jaligi kooperatsiya munosabatlarini iqtisodiy taxlili.....	34
2.3.Namangan viloyatida qishloq xo’jaligidagi kooperatsiya munosabatlarini tashkiliy iqtisodiy asoslari.....	46
2.4.Namangan viloyati qishloq xujaligidagi kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari.....	52
<b>Xulosa.....</b>	<b>55</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>58</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bozor islohotlarini amalga oshirish, mamlakatning kafolatlangan «oziq-ovqat xavfsizligi»ni ta'minlash, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdan iborat strategik vazifalarni hal qilish qishloq xo'jaligi kooperatsion aloqalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

SHu jihatdan, agrosanoat integratsiyasini isloh etish mamlakatni iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «...birinchi navbatda yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish darkor»<sup>1</sup>.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar agrosanoat integratsiyasining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga, sohada bozor mexanizmining shakllanishiga, har bir viloyatning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanishga asoslanadi. Albatta, bunda uzoq muddatga mo'ljallangan strategik dasturlar, yaqin va o'rta muddatga qaratilgan kontseptsiyalar, doimiy amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda agrar sohani bosqichma-bosqich, tizimli va tarkibiy jihatdan izchil yangilash maqsadi nazarda tutilmoqda.

Qishloq xo'jaligida kooperatsion munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar har bir viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va muammolarini belgilab beradi. Xususan, agrosanoat majmuasi integratsiyasi samaradorligini oshirish kabi muammolar respublika viloyatlarida, shu jumladan, Namangan viloyatida ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar viloyatlarning milliy iqtisodiyot tizimida xo'jalik ixtisoslashuvi, agrosanoat integratsiyasi samaradorligi, aholining bandlik va daromad darajasini aniqlaydi

Qishloqda bozor infratuzilmasi amalda yangidan barpo etildi, qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish, sohani boshqarish tamoyillari va tizimi sifat jihatdan mutlaqo yangicha asosda yo'lga qo'yildi. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadigan bozor infratuzilmasi sub'ektlarining keng tarmog'i yaratildi.

Qishloq aholisi bandligining shakllanishi faqat mehnat bozorining samarali rivojlanishi va iqtisodiyotning barcha sektorlarida tarkibiy islohotlar o'tkazilishi asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Bular qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchining sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga, shaxsiy mehnat faoliyati sohalariga hamda shahar xalq xo'jaligiga oqib o'tishi, xodimlar zahiralarning shakllanishi va ularning bozor mexanizmlari asosida safarbar qilinishi va qayta taqsimlanishi jarayonini belgilab beradi.

Bilamizki, qishloq xo'jaligi sohasi juda keng tarmoqli. SHu bois agrar siyosatni yurgizishda sohaning har bir bo'g'iniga alohida e'tibor qaratish lozim.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kuzatilayotgan bir paytda mamlakatimizdagi fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, bu o'z navbatida agrosanoat tizimiga katta ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq, chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash yurtimiz taraqqiyotida katta o'rin egallab turadi.

Mana shu holatning o'ziyiq qishloq xo'jaligida kooperatsion munosabatlarni iqtisodiy tahlil qilishni taqozo qiladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qishloq xo'jaligida kooperatsion munosabatlar rivojlanishining ayrim jihatlari MDH mamlakatlari olimlaridan V.I.Butov, D.D.Boldorjiev, A.G.Granberg, V.Demyanenko, N.P.Ketova, Ye.Serova, V.Ya.Uzun va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. SHuningdek, davlat siyosati ta'sirida ASMLar faoliyati va ularning mintaqaviy samaradorligi xususida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.

O'zbekistonda ASMrini takomillashtirish masalalariga A.Abdug'aniev, M.Abdusalyamov, O.Abdullaev, R.V.Abdullaev, I.Ivatov, CH.Murodov, F.Nazarova, A.S.Soliev, A.F.Xurramov, F.T.Egamberdiev, A.A.Qayumov, R.H.Husanov kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlar qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va sanoat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, agrosanoat majmuasi tarkibiy tuzilmasi, agrar soha ishlab chiqarishi bilan bog'liq mehnat, moliya-kredit bozori va tovar aylanishini ta'min etuvchi boshqa aloqalarning rivojlanishiga, mintaqaviy muammolari va tarkibiy o'zgarishlarning umumiy jihatlariga e'tibor qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni, ulgurji bozorlar va qayta ishlash hisobidan keladigan samaradorlik, mintaqalarda yer resurslari taqsimoti, yerdan samarali foydalanish kabi masalalar A.A.Abdusasiqov, F.B.Aminov, O.S.Jumaev, A.S.Raxmatullaevlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Mazkur ish agrosanoat majmuasi tarmoqlarining iqtisodiy mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, shakllanishining ilmiy asoslari, transport xizmati, raqobat va sof monopoliya sharoitida faoliyati, alohida mintaqalarda rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatidagi jihatlar bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farq qiladi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi qishloq xo'jaligida kooperatsion munosabatlarni tadqiq etish, uni rivojlantirish bo'yicha mavjud muammolarni o'rganishdan iborat

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish taqozo qilinadi:

- mamlakat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining tutgan o'rnini, sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ularning ustivor yo'nalishlarini nazariy o'rganish;
- O'zbekiston qishloq xo'jaligida korporativ boshqaruv mexanizmini shakllanishining iqtisodiy shart-sharoitlari tizimda kechayotgan islohotlar va ularning pirovarddagi natijasini tahlil qilish;
- agrar sektorda kooperatsiya munosabatlari rivojlanishining xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish;
- Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillarini baholash;
- Namangan viloyati qishloq xujaligidagi kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari tadqiq etish va boshq.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining ob'ekti Namangan viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi kooperatsion aloqalarni iqtisodiy tadqiq etishdan iborat bo'lsa, tadqiqot ishining predmeti sifatida bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida agrosanoat majmuasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish munosabatlari va ulardagi muammolarni o'rganish belgilangan.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq huquqiy va me'yoriy hujjatlar, xorijiy hamda malakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqotga taaluqli ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Namangan viloyati iqtisodiyotini boshqarish va statistika bosh boshqarmasidan olingan va muallif tomonidan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida retrospektiv, tizimli va statistik tahlil, iqtisodiy-statistik guruhlashtirish, iqtisodiy-matematik bashoratlash, monografik, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari Namangan viloyati xokimligi tomonidan ishlab chiqiladigan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda va viloyatning ixtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, ishdagi ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot fakul'teti talabalariga

mintaqaviy iqtisodiyot va ASM iqtisodiyoti fanlaridan o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibi.** «Iqtisodiyotni madernizatsiyalash davrida qishloq xo'jaligidagi kooperatsion aloqalar» mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, xulosa va 49 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning mohiyatini ochib berish maqsadida 7 ta jadval va 3 ta chizmalardan foydalanilgan.

## I- BOB. IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH DAVRIDA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KOOPERATSIN MUNOSABATLARNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1.O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va kayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy islohotlar;
- erdan foydalanish borasidagi islohotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug'urta sohasidagi islohotlar;
- narx-navo tizimidagi islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan **mulkiy-tarkibiy islohotlarda** birinchi navbatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga muhim e'tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yirik tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida 1999-2007 yillarda jami 2102 ta istiqbolsiz shirkat xo'jaligi bosqichma-bosqich tugatilib, ularning negizida 158738 ta fermer xo'jaligi tashkil etilgan edi.

Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmi maqbullashtirildi.

Bu jarayonda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini o'stirishga imkon yaratuvchi quyidagi omillar e'tiborga olindi:

- fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan yer maydonlaridan yaxlit konturlarda, yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;
- fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligini e'tiborga olish;
- suv va boshqa moddiy resurslarni tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo'llashga qulay sharoit yaratish;
- yiriklashtirilgan fermer xo'jaliklarining kompleks mexanizatsiyalashuv borasidagi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;
- zarar bilan ishlayotgan va o'zini oqlamayotgan kichik fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barham berish.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lmoqda

Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu borada ayniqsa qulay moliya-kredit va soliq mexanizmlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Islohotlar davomida fermer xo'jaliklarini moliya-kredit va soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning samarali tizimiga asos solindi:


- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi;
- fermer xo'jaliklari uchun yerlarning unumdorligiga bog'liq bo'lgan yagona yer solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar joriy etildi;
- fermerlarga texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida yetkazib berish tartibi joriy etildi;
- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi;
- ball boniteti past bo'lgan yerlarda paxta va g'alla yetishtiradigan fermer xo'jaliklarining zararini qoplash maqsadida ularga moliyaviy yordam berish tizimi joriy etildi;
- irrigatsiya va melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotga tatbiq qilinadi.

2011 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 17,1 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. SHu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy

islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining

**1-rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy**



**ko'rsatkichlari, (foizda).**

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. CHeklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.


asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda.

O'tgan 2005-2011 yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik barqaror o'sish sur'atlari dinamikasig ta'minlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005 yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 106,6 foizga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining 2005 yildagi 26,3 foizdan 2011 yilda 17,1 foizga pasayishi ijobiy holdir. Bu avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.

Yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Buning samarasi o'laroq, 1990-2011 yillarda don yetishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobar, uzum 1,3 barobardan ziyod, go'sht (tirik vaznda) 1,9 barobarga, sut 2 barobardan va tuxum 2,4 barobardan ko'proq oshganligi fikrimizning dalilidir.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish hisobidan ta'minlanmoqda.



**2-rasm. O'zbekistonda asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining o'zgarish dinamikasi, tsentner hisobidan.**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, o'tgan 20 yildan ortiqroq davr mobaynida asosiy turdagi ekinlarning hosildorligi muttasil o'sib borish sur'atiga ega bo'lgan. Xususan, 2010 yilda 1990 yilga nisbatan paxta hosildorligi gektariga 22,6 tsentnerdan 25,6 tsentnerga yoki 113,3 foizga, donli ekinlar hosildorligi 20,2 tsentnerdan 44,2 tsentnerga yoki 218,8 foizga, kartoshka hosildorligi 80 tsentnerdan 194,9 tsentnerga yoki 243,6 foizga, sabzavot hosildorligi 192,0 tsentnerdan 252,5 tsentnerga yoki 131,5 foiz ga va poliz hosildorligi 115 tsentnerdan 192,6 tsentnerga yoki 167,5 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 1990 yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobidan aholining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli yuz foiz o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda aholi jon boshiga nisbatan 24,0 kg meva, 24,0 kg uzum, 138,6 kg sabzavot, 15,1 kg kartoshka va 39,0 kg poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib aholi jon boshiga 60,1 kg meva (250,4 foiz), 35,1 kg uzum (146,2 foiz), 225 kg sabzavot (162,3 foiz), 60,5 kg kartoshka (400,6 foiz) va 42,0 kg poliz mahsulotlari (107,6 foiz) yetishtirildi.

**1-jadval**

## O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turi	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbatan, foiz da
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225,0	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi**

Mustaqillik yillarida agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, 2011 yilda 1991 yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 31 kg.dan 38 kilogramm yoki 122,6 foizga, sut mahsulotlari 183 kilogrammdan 239 kilogrammga yoki 130,3 foizga, tuxum 97 donadan 138 donaga yoki 142,3 foizga oshgan.

Keyingi yillarda yurtimizda chorvachilik taraqqiy etgan mamlakatlardan zotdor mollarni olib kelib, urchitishni tashkil etishga jiddiy e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 2006-2011 yillar davomida respublikamizga xorijdan jami 23286 bosh naslli qoramol keltirilgan.

Respublikamiz hukumati tomonidan mamlakatimizda chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish borasida ham maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga muhim hissa qo'shishi shubhasiz.

### 1.2.Agrar sektorda kooperatsiya munosabatlari rivojlanishining xorijiy mamlakatlar tajribalari

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida aholini sifatli va xavfsiz bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash global ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biriga aylandi. Bu eng avvalo yer shari aholisini shiddat bilan o'sishi (asosan Afrika va Osiyo davlatlari) bog'liqdir. SHunga ko'ra har bir davlatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat oldida turgan vazifalardan biri hisoblanib, ushbu muammo har bir davlat agrar sektorini rivojlantirib borishi bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda kooperatsiya bo'yicha to'plangan tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ASMdagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirib borishda hamda mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda fermerlar kooperatsiyasi muhim ahamiyatga egadir. SHunga ko'ra ushbu davlatlarda agrar sektorda kooperatsiya jarayonlarini rivojlantirish davlat asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlarida davlat kooperatsiyalarni rivojlantirib borishni quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi:

- agrar kooperativlarni rivojlantirishga mo'ljallangan turli dasturlarni moliyalashtirish;
- kooperativlarga imtiyozli kreditlar ajratish;
- kooperativlarga soliq va bojlarni to'lashda yengilliklar berish va b.

Rivojlangan davlatlarda kooperatsiya jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan turli yo'nalishdagi, iqtisodiy-tashkiliy tadbirlarni olib borilishi natijasida, fermerlar mahsulotni qayta ishlash korxonalarini tizimini shakllanib, savdo kooperativlarini tashkil etiladi. SHuning bilan birgalikda, kredit va sug'urta, "Er banki" kooperativlari shakllangan bo'lib, fermerga yillik 8-10 foizlik stavkali kreditlar ajratiladi. Bugungi kunda, ko'plab davlatlarda vertikal integratsiya

shaklidagi kooperativlar asosida, qishloq xo'jaligi texnikasi va mashinalari, yem-xashak, o'g'itlar hamda o'simlik va chorva hayvonlari, parrandalarni himoya qiluvchi preparatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turli ko'rinishdagi kooperativ assotsiatsiyalari tashkil etilgan. Hatto, ayrim davlatlarda ilmiy-tadqiqotlar kooperativlarini tashkil etilganligi. SHuning uchun ham ushbu davlatlar agrar tizimida qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari alohida ahamiyatga kasb etadi.

Masalan, SHimoliy Yevropa davlatlarining qishloq xo'jaligi kooperativlari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va sotishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu davlatlarda go'sht mahsuloti va tirik vazndagi chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ularning ta'minotida kooperativlarning ulushi 80 foizni, tuxum bo'yicha esa 65-70 foizni tashkil qiladi. Jumladan, ularning ulushi SHvetsiya va Finlyandiyada g'alla bo'yicha 65-79 foiz, Daniyada esa meva-sabzavot bo'yicha 50 foizdan iborat. Norvegiya va Finlyandiyada sut sanoati to'raligicha, go'sht sanoatini katta qismi hamda oziq-ovqat sanoatining 55 foizi fermerlar kooperativlariga tarkibidadir. SHimoliy Yevropa davlatlari tashqi bozorlarga 75-80 fozi mahsulotlar chiqariladi. Tashqi bozorlarda bunday aktiv xarakatlarni sababi, ushbu mahsulotlar yuqori raqobatbardosh hisoblanadi (narx, sifat va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha), chunki mahsulotni qayta ishlashga ixtisoslashgan kooperativlar sanoati eng zamonaviy asbob, uskuna va jihozlar hamda chiqindisiz ishlovchi texnologiyalar bilan ta'minlangandir. SHvetsiya kooperativlari tomonidan sut va sut mahsulotlarining 98 foizi va g'alla va tuxumni 75 foizidan ortig'i kooperativlar tomonidan eksport qilinadi. Frantsiyada kooperativlari ham mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishda ularning ulushi 80 foizni tashkil etadi.

Bozor munosabatlari taraqqiy etgan G'arbiy Yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi kooperativlari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida shakllanib, ya'ni ularning faoliyati faqat qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bilan cheklanmasdan, shuningdek qayta ishlash, saqlash, mahsulotlari realizatsiyasi, ishlab chiqarish vositalari va turli xizmatlarni ko'rsatish va boshq. qamrab olgan. SHu bilan birgalikda fermerlar kooperatsiyasi keng tarqalgan integratsiya aloqalari shakllaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini agrar sektorni barcha soha va bo'g'inlari bilan integratsiyasidir. Integratsion birlashuvlar o'z tarkibiga bir necha kooperativlar kirib, firma-integrator shaklini aks ettiradi, shuningdek ularning tarkibiga sanoat va savdo korxonalarini ham kiradi.

Kooperativlarning bunday kontsentratsiyasi ko'p bosqichli tashkiliy strukturani shakllanishiga olib keldi. SHimoliy Yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi kooperativlari tizimini bosh tashkilot agrar kooperativlar uyushmasi boshqarib, u strategik vazifalarni belgilab ularni olib borilishini nazorat qiladi va turli masalalarni hal etadi. Asosiy e'tibor past rentabellik kooperativlarni rivojlantirishga qaratiladi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirib va takomillashtirib borishda iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasining ijobiy tomonlarini, respublika qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarni to'liq hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etib borish, o'z navbatida tarmoqning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

### **1.3.Qishloq xo'jaligida kooperatsion aloqalarni samaradorligini baholash uslubiyati**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar qishloq tarmoqlarida ishlab chiqarishni boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etmoqda.

CHunonchi, fermer xo'jaliklari tomonidan tashkil etiladigan kooperatsiyaning maqsadi kafolatlangan daromad olishga intilish bilan bog'liqdir. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi uchun doimiy tavsifga ega bo'lgan tuzilmani tashkil etish unda ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va xo'jalik ko'lamlarini to'g'ri tanlay olishi, unga mos ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy

asosni yaratishi, mahsulotni sotish va qayta ishlash, ASM tizimidagi korxonalar bilan kooperatsiyani rivojlantirishning birmuncha foydali yo'llarini aniqlashlashtirib olishi lozim.

Fermer xo'jaliklari kooperatsiyaning ishlab chiqarish tarmoq ixtisoslashuvining u yoki bu modelini tanlash ketma-ketlikda bajariluvchi chora – tadbirlarni qamrab olishi lozim: ko'zda tutilayotgan ishlab chiqarish ixtisoslashuvining muqobil variantlarini o'rganish va dastlabki tahlil qilish; kooperatsiyaning resurslarga bo'lgan ehtiyojini asoslash; ko'zda tutilayotgan ishlab chiqarish xarajatlari va har bir tarmoqdan olinishi mumkin bo'lgan foydani tahlil qilish; asosiy va qo'shimcha tarmoqlarning bir muncha samarali birikuvining qisqa va uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish.

Bunda, kooperatsiyaning resurs bazasida va kiritilayotgan kapital o'lchamlarida, ekinlar hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligida qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari va xizmatlariga narxning mumkin bo'lgan o'zgarishlari hisobga olinishi zarur.

Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasini tashkil etish bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarning keyingi bosqichi, bevosita uni tashkil etish bo'lib hisoblanadi. Bu yerga kooperatsiyasining bir muncha maqbul bo'lgan tashkiliy – huquqiy shaklini tanlash, tijorat, moliya va kredit mablag'laridan foydalanish, texnik rivojlantirish, hisob – kitob narxlari, tariflar va baholar sohasida ular o'rtasidagi umumiy harakatlarni kelishib olish alohida o'ringa ega. So'ngra, kooperatsiyani ro'yxatdan o'tkazish, kooperatsiya ishtirokchilarining ta'sis yoxud umumiy yig'ilishini o'tkazish, Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasini strategik va taktik boshqarishning asosiy masalalarini hal etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Ma'muriy organlarda tegishli hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, kooperatsiya ishtirokchilari o'zlari tomonidan tashkil etilgan birlashma doirasida faoliyatlarini boshlashlari mumkin.

Respublikamizda fermer xo'jaliklarning ko'pchilik qismi uchun tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri, mavjud resurslarni mujassamlash hisobiga ularning optimal, maqbul nisbatlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratuvchi takror ishlab chiqarish jarayonini kooperatsiyalash bo'lib xisoblanadi.

Kooperatsiyasi – bu yakka faoliyat davomida erishish qiyin yoki mumkin bo'lmagan ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni qondirish maqsadida, bir yoki bir necha, biroq o'zaro bog'liq bo'lgan mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarida tovar ishlab chiqaruvchilarning hamkorlikda xo'jalik faoliyati yuritish shaklidir.

Fermer xo'jaliklarini kooperatsiya sub'ekti sifatida tadqiqotlar olib borish natijasida, O'zbekistonda ishlab chiqarishi sohasida kooperatsiya aloqalarining hozirgi rivojlanish holatini tahlil etish, va rivojlangan mamlakatlar agrar sektorida kooperatsiya munosabatlarini o'rganish asosida quyidagi fermer xo'jaliklarini kooperatsiyasi turlarini tavsiya etiladi:


- Mexnat kooperatsiyasi;
- Texnika vositalaridan foydalanish kooperatsiyasi;
- Sotish va ta'minot kooperatsiyasi.
- Kredit va sug'urta kooperatsiyasi;
- Er resurslaridan foydalanish kooperatsiyasi;
- To'la kooperatsiya va h.k.

Fermer xo'jaliklarining kooperatsiyasiga intilishiga ta'sir etuvchi asosiy sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin: moddiy va moliyaviy mablag'larning yetishmasligi, asosiy va aylanma vositalar narxining haddan tashqari yuqoriligi, fermerlar malakasining yetarlicha emasligi, yer maydonining kamligi, rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjud emasligi, davlat qo'llab - quvvatlashining yetarli emasligi va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlari darajasining pastligi, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxi o'rtasidagi nomutanosiblik.

Kooperatsiya - shunday organizmki, unda insonning ishlab chiqarish vositalari bilan munosabati barham topmaydi, aksincha yirik tuzilmalarning ustun jihatlari o'z ifodasini topadi, u o'z faoliyatida faqatgina, o'z nizomiga tayanadi, hech kim hatto davlat ham uning ishiga aralasha olmaydi.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllanishida agrofirmalarning

ahamiyati beqis hisoblanadi. Zero, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish va zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishda, shuningdek qishloq xo'jaligida raqobat muhitini shakllanishida agrofimalarning roli muhim hisoblanadi. Aynan agrofimalar qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'g'inlarini bir tizimga birlashtirish mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qator muammolarni hal etadi. Bu esa o'z navbatida mahsulotni sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishni bozor talabidan kelib chiqqan holda tashkil qilish, ichki va tashqi bozorga mahsulotni yangi uzilgan va qayta ishlangan holatda olib chiqish imkoniyatini beradi.



3-rasm. Agrofirma tuzilishi. Ushbu tuzilish Prezident qarori bilan 2006 yil 9-yanvar PF-3709 sonli qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahalliyati tomonidan tasdiqlanib, 10 mart 42-sonli qaror) qabul qilindi. Ushbu Farmon va Qarorlarga asosan ixtisoslashgan barcha shirkat xo'jaliklari tashkil qilindi hamda ular ixtiyoriy ravishda agrofimalarga birlashtirildi.

Agrofimalar ta'sischi sifatida tuzildi (3-rasm). Ushbu rasmda keltirilgan ta'sischi tizimidan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishda ishtirok etuvchi sub'ektlarni birlashtirish mahsulot sifatini oshirish, tannarxini pasaytirish, standartlar talabiga javob berish, tashqi va ichki bozorga mahsulot chiqarish uchun raqobat muhitini shakllantiradi. Ushbu agrofimalarda shakllangan raqobat muhiti eng optimal variant deb qabul qilinsa bo'ladi. Ammo shuni ham ta'kidlash lozimki, birgina raqobat muhitini shakllantirib qolmasdan bu muhitdan samarali foydalanish ham kerak.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi agrofimalarda mahsulotlarni qayta ishlash ulushi 20-25 foizdan oshayotgani yo'q, bu ko'rsatkich agrofirma miqyosida 50-60 foizga yetkazilishi kerak. Agrofirma doirasida yetishtirilayotgan mahsulotlarni yangi uzilgan va qayta ishlangan holatda 35-40 foizini eksport qilishlari maqsadga muvofiq. Amalda ushbu ko'rsatkich 15-20 foizdan oshmayapti. Agrofimalarda fan-texnika yutuqlarini va ilg'or texnologiyalarni keng miqyosda joriy qilish hisobiga mahsulotni tannarxi arzonlashishi va raqobatbardoshligi oshishi ko'zda tutilgan edi, lekin ushbu holat bo'yicha kutilgan natijalarga erishilmadi.

SHunday qilib agrofimalar tuzilishi bilan qishloq xo'jaligida shakllantirilgan raqobat muhiti salohiyatidan yetarli foydalanilgani yo'q. Fikrimizcha, buning sabablari quyidagilardan iborat:

1. Avvalo, agrofirma ta'sischi sifatida ixtiyoriy kirishi, chiqishi va teng huquqliligi ko'zda tutilgan edi. Joylarda agrofimalar rahbarlari, mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarini boshqa

<sup>2</sup> Agrosanoat firmalari tashkil etish bo'yicha hujjatlar to'plami. T.: - 2006. 22 bet

barcha bo'g'inlardan ustun qo'ydilar, teng huquqlilik va erkinlik tamoyili buzildi.

2. Agrofirmalarga kiruvchi sub'ektlar o'rtasidagi ichki iqtisodiy mexanizm ishlamayapti, ichki narxlarni va daromad taqsimotini yuqoridan belgilash holatlari vujudga keldi. Ichki narxlar bozor narxlaridan 1,5-2,0 marotaba past belgilanishi fermerlarda mahsulot hajmini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishni pasaytirib yubordi. SHuningdek mahsulot eksportidan olingan sof foydani sub'ektlar o'rtasidagi taqsimot mexanizmi ham ishlayotgani yo'q.

3. Boshqarish tizimini demokratlashtirish, agrofirma tarkibiga kiruvchi barcha sub'ektlarni boshqarish mexanizmidagi ishtirokiga aniqlik kiritilmadi.

SHunday qilib belgilangan hukumat me'yoriy hujjatlarini amaliyotda to'liq ishlamasligi, Farmon va Qarorlarni bajarilishi monitoringini o'tkazmaslik, ularni bajarilishi ustidan nazorat olib bormaslik agrofirmalar ishlarini yaxshi rivojlanishini ta'min etmaslikka olib kelib, shakllangan raqobat muhitidan to'laroq foydalanish imkoniyatini berayotgani yo'q. Vaholanki, agrofirmalar tuzilishida qo'yilgan asosiy maqsad raqobat muhitini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirishda bozor omillaridan to'laroq foydalanishga qaratilgan edi.

## **II- BOB. ERKIN RAQOBATCHILIK MUHITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA UNITAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

### **2.1. Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillari**

Mazkur ishda ko'rilayotgan Namangan viloyati nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo hududida takrorlanmas tabiiy manzaralariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Viloyat Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, cho'zilgan to'rtburchak shaklini eslatadi; u g'arbdan sharqqa 130 km, shimoldan janubga esa 35 km.dan 80 km.gacha cho'zilgan. Hududi 7,9 ming kv. km., bu jihatdan u O'zbekistonning Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasida oldingi o'rinda turadi. SHimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, shimoli-g'arbda va g'arbda Toshkent viloyati va Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubi-sharqda Farg'ona viloyatining Qo'qon guruhi rayonlari hamda Andijon viloyati bilan chegaralanadi. Viloyat chegaralarining muhim xususiyatlaridan biri ularning aksariyat tekisliklari orqali o'tishidir. Hatto qo'shni respublikalar, ya'ni Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi chegaralar ham qulaydir. Ularni bog'lab turadigan transport yo'llari shu sababli iqtisodiy jihatdan qadimdan yaxshi o'zlashtirilgan hududlar orqali o'tadi. Umuman olganda, viloyatning iqtisodiy-geografik va geosiyosiy o'rni uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga va bozorlarining rivojlanishiga qulaylik yaratadi. Tabiiy resurslar Namangan viloyatining iqtisodiy salohiyati uchun ijobiy baholanadi. Viloyat hududining geologik tuzilishi ancha murakkab bo'lib, unda turli davrlarda paydo bo'lgan xilma-xil qazilma boyliklardan iqtisodiyotda foydalanib kelinmoqda. Istiqbolli yo'nalishga ega bo'lgan neft havzalari adir va adir orti hududlarida-Tergachi, CHotqol hamda Mingbuloq cho'kmasida uchraydi. Bu konlarning nefti yengil, unda oltingugurt kam uchraydi. SHuningdek, oltin, uran va boshqa ko'plab qora, rangli va nodir metallar, qurilish materiallaridan marmar, granit, oxaktosh, gil, gips, tosh, qum ham bor. Namangan viloyati aynan shu jihatlari bilan ham qo'shni Farg'ona va Andijon viloyatlaridan farq qiladi. Bu xususiyat esa viloyatda qurilish materiallari ishlab chiqarish bozorining shakllanishiga sabab bo'lgan. Viloyat shifobaxsh issiq mineral suvlarga boy. Xususan, CHortoq, SHahand, Kosonsoy, Uchqo'rg'on suvlari o'zining minerallanish darajasi bo'yicha alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa hududini tashkil etgan tog' va adirlar muhim xo'jalik ahamiyatiga molikdir. Bu yerda 20 ga yaqin daryo va mavsumiy soylar bor. Mavjud suv resurslari qadimdan sug'orma dexqonchilikni rivojlantirish va aholi joylashuvining asosi bo'lib xizmat qilgan (Jumaxanov, 1998). Biroq, Namangan viloyati O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan suv bilan ta'minlanganlik darajasi ancha yuqori bo'lishiga qaramay Farg'ona vodiysining boshqa qismlariga qaraganda daryo va soylarining kamsuvligi bilan ajralib turadi.

Mintaqaning shimol va shimoli-sharqdagi tog'lar tabiiy namlik akkumulyatori sifatida viloyat tekislik qismini oqar suv bilan ta'minlab turadi. Tog'larga yogin tekislikka nisbatan bir necha marta ko'p tushadi, ulardagi qor va muzliklar yilning issiq mavsumlarida erib, pastki xududlarni suvga bo'lgan talabini qondiradi. Ayni vaqtda, Namangan viloyatining tekislik qismida joylashgan (Mingbuloq, Norin) hududlar suv bilan yaxshiroq ta'minlangan.

Norin, Qoradaryo bilan qo'shilib, Markaziy Osiyodagi eng uzun va sersuvligi jihatidani Amudaryodan keyinda turuvchi Sirdaryoni hosil qiladi. Sirdaryo suvining 77 foizini Norin va 23 foizini Qoradaryo beradi. Sirdaryodan Mingbuloq tumani xo'jaliklarini suv bilan ta'minlovchi Y.Oxunboboev nomli kanal, «Namangan» nasos va Pop tumani hududidagi nasos stantsiyalari suv oladi. SHuningdek, vodiydagi juda ko'p irrigatsiya inshootlari-kanallar aynan Namangan viloyati hududidan, aniqrog'i Uchqo'rg'on yaqinidan boshlanadi.

Namangan viloyatidagi Tyan-SHanь tog' tizimiga kiruvchi tog'lardan ko'plab daryo va soylar XX asrning 70 yillaridan boshlab Namangan viloyatining adir, adirorti tekisliklari va tog'

oldi hududlarini intensiv o'zlashtirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda ularning aksariyati Sirdaryoga deyarli yetib bormaydi va tamomila sug'orishga sarflanadi. CHodaksoy, Rezaksoy, G'ovasoy, Kosonsoy, Namangansoy, Podshootasoy, CHortoqsoy Namangan hududidagi tog' daryo va soylaridir. Bundan bozorlarni tashkil etish uchun tegishli tabiiy-geografik imkoniyatlar mavjud. SHu jihatdan viloyat Toshkent va Jizzax viloyatlari kabi tabiiy resurslar salohiyatining nisbatan kattaligi bilan ajralib turadi.

Viloyatda iqtisodiyotni erkinlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sishni, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, unda xususiy mulkning yetakchi o'rin egallashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Viloyat iqtisodiyoti 2010 yilda 2000 yilga nisbatan solishtirma narxlarda 37,1 %ga o'sdi. Bunda sanoat ishlab chiqarishi 2,1 martaga, qishloq xo'jaligi 33,7 %ga, tashqi savdo aylanmasi 41,6 %ga, eksport hajmi 30 %ga oshganligini ko'rish mumkin. Viloyatda ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish va mulkchilikni barcha shakllarini rivojlantirish uchun yetarli iqtisodiy sharoitlar yaratildi. Viloyatda 2011 yil ma'lumotlariga ko'ra iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ro'yhatga olingan yuridik maqomidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 31325tani, shulardan faoliyat ko'rsatayotganlari 28657 tani yoki 91,5 foizni tashkil qildi. Ro'yhatga olingan korxonalar va tashkilotlarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi (51,3 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish (18,0 foiz), sanoat (7,4 foiz) va qurilish (4,6 foiz) sohalariga, tumanlar kesimida esa CHust tumani (10,4 foiz), CHortoq tumani (8,8 foiz), Yangiqo'rg'on tumani (10,2 foiz), Pop tumani (7,8 foiz) va Namangan shahri (19,3 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Jami ro'yhatga olingan korxonalar hajmida nodavlat mulki shaklidagi korxonalarining ulushi 90,2 foizni, shu jumladan fermer va dehqon xo'jaliklari 46,9 foizni, aktsiyadorlik jamiyatlari 0,3 foizni, xususiy korxonalar 25,3 foizni, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar 0,2 foizni tashkil qildi. 2010 yilda viloyatda jami 2629 ta xo'jalik yurituvchi sub'ekt davlat ro'yxatidan o'tib, bularning 159 tasi yoki 6,0 foizi kichik biznes sub'ektiga mansub bo'lmagan korxonalar 2470 tasi yoki 94,0 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

**3-jadval**  
**Namangan viloyatida YaHM ishlab chiqarishning**  
**tarmoqlar takibi**

№	Mahsulot ishlab chiqarish	YaHM (mln.so'm)		O'tgan yilning shu davriga nisbatan	YaHM yaratishdagi ulishi (%)
		2009 yil	2010yil		
1.	Sanoat	126221,8	173841,7	119,0	7,4
2.	Qishloq ho'jaligi	635198,4	826990,1	106,5	37,0
3.	Qurilish	120775,8	171376,3	131,3	7,3
4.	Transport va aloqa xizmati	160970,1	196489,6	111,8	8,6
5.	Savdo va umumiy ovqatlanish	156352,8	200917,3	114,2	9,2
6.	Boshqa bozor va nobozor xizmatlar	562815,4	726765,0	115,2	24,2
7.	Mahsulot va eksport-import operatsiyalariga oid soliqlar	110163,6	130240,7	115,7	6,3
	<b>Jami</b>	<b>1872497,8</b>	<b>2426620,8</b>	<b>112,4</b>	<b>100</b>

\*Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

SHu bilan bir qatorda, 2010 yilda jami 1126 ta xo'jalik yurituvchi sub'ekt davlat ro'yxatidan chiqarilgan bo'lib, ularning 70 tasi yoki 5,7 foizi kichik biznes sub'ektiga mansub bo'lmagan korxonalar, 1156 tasi yoki 94,3 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyat bo'yicha bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan hususiy korxonalar soni 6328 tani tashkil etib, ularning 99,7 foizi yoki 6309 tasi kichik biznes sub'ektlaridir. 2010 yil yanvar-dekabr oylari davomida jami 1272 ta hususiy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilib, 435 ta xususiy korxonalar tugatildi. Viloyatda qishloq xo'jaligi va transport sohalari to'raligicha nodavlat mulk shakliga o'tkazildi. Nodavlat tashkilotlari salmog'i iqtisodiyotning sanoat tarmog'ida 99,1 %ga, savdoda 99,8 %ga, pullik xizmatda 84,4 %ga va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida 98,1 %ga yetdi. Viloyat bo'yicha yalpi hududiy ichki mahsulot ishlab chiqarish 2010 yilda amaldagi narxlarda 1425,9 mlrd.so'mni (2004 yilda 465,3 mlrd.so'm, 2005 yilda 612,7mlrd.so'm, 2010 yilda 242,7mlrd.so'm ) tashkil etdi yoki 2009 yilga nisbatan 112,4 foizga o'sdi. 2000 yilga nisbatan aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish mos ravishda 4,9 martaga ko'paydi (3-jadval).

Yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi, transport, savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlarini ulushi ortdi. Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 dekabrda 517-sonli «Vazirlar Mahkamasining umumiy iqtisodiyot kompleksi ishi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini bajarib, moliyaviy holatni barqarorlashtirish, to'lov intizomini hamda pul-kredit siyosatini mustahkamlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi:

- naqd pul tushumi ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi;
- tijorat banklari tomonidan loyihalarning samaradorligi va xarajatlarni qoplashdan kelib chiqqan holda kreditlar ajratilishi ustidan nazoratni kuchaytirildi;
- mahalliy byudjet taqchilligini inflyatsiyasiz qoplashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi;
- soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirildi. Viloyatda bozor infratuzilmalarini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Viloyatdagi Markaziy bank va 13 ta tijorat banklari faoliyatini bank tizimini isloh qilish talablari asosida tashkil etildi. Ayniqsa 2006 yilda «Milliy valyutani halqaro joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini ta'minlash Harakat rejasi ijrosi»ga doir Respublika Idoralararo maxsus yig'ilishida belgilangan vazifalarni viloyatda bajarilishini tashkil etish yuzasidan iqtisodiyot va nazorat organlarining tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va shu dastur asosida ish tashkil etildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida milliy valyutamizni halqaro operatsiyalarda konvertatsiyasi ta'minlandi. Erkin konvertatsiyaga o'tilishi viloyatga chet el investorlarini kirib kelishi uchun imkoniyat yaratib berdi. Natijada banklarga barcha manbaalardan pul tushumi ko'paydi. Aholiga iste'mol mollari yetkazib berish, pullik xizmat ko'rsatish tarmog'i yaxshilandi.

Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining viloyat bosh boshqarmasi hamda 13 ta tijorat aksionerlik banklari jumladan, Respublika IAT «Paxtabanki» va Halq banklarining viloyat boshqarmalari, «Sanoatqurilish», «Milliy», «Impoteka», «Mikrokredit», «G'alla», «Savdogar», «Turon», «Ipak yo'li», «Aloqa», «Asaka» va «Xamkor» banklarining viloyat bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.«Paxta bank», «Xalq»banki, «G'alla bank», TIF Milliy bankining tumanlarda bo'limlari mavjud.

Viloyatimyatda hozirda to'rtta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi yuridik shaxs sifatida 1997 yilda tashkil qilinib, o'zining mustaqil balansi, hisob va valyuta raqamlariga ega. Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari-qishloq xo'jaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va mahsulotlarini sug'urta yo'li bilan himoya etish, banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatlari taqdim etish, yuridik va jismoniy shaxslarga har tomonlama sug'urta xizmatini ko'rsatishdan iboratdir.

Namangan viloyatida 3 ta kredit uyushmasi mavjud bo'lib, bular «Barokot», «Tayanch», «FV-Mard» kredit uyushmalaridir. «Barokot» va «FV-Mard» kredit uyushmalari «Mercy Corps»ning Osiyo davlatlarida ayollarga mikromoliyaviy yordam berish dasturiga asosan tashkil etilgan. Bu ikki kredit uyushmasining faoliyat yo'nalishi deyarli bir xil, ya'ni, to'rt yo'nalishda kreditlar ajratadi. Bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ishlab chiqarish, savdo, agrobiznes (chorvachilik, dehqonchilik), xizmat ko'rsatish sohalari.

Sanoatda asosiy e'tibor importning o'rnini bosadigan yo'nalishga (mahalliy lashtirish yuzasidan qabul qilingan dasturga muvofiq mahalliy xom ashyodan foydalanish), shuningdek, eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash, mashinasozlik, kimyo va qurilish sanoatini rivojlantirish viloyatdagi asosiy ustuvor yo'nalishlardir.

Namangan viloyatida qishloq xo'jalik korxonalarining koperatsion aloqalarining rivojlanishida viloyatning investitsion jozibador hududlarida qo'shma korxonlarni tashkil etilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda viloyatda chet ellik investorlar ishtirokidagi 54 ta qo'shma korxonalar mavjud bo'lib, shundan 42 tasi sanoat, 5 tasi savdo, 2 tasi qishloq xo'jaligi, 2 tasi qurilish va 3 tasi boshqa sohalarda ishlab turibdi. Shundan, 20 ta qo'shma korxonalar rossiyalik, 17 ta qo'shma korxonalar turkiyalik va 5 ta qo'shma korxonalar amerikalik investorlar ishtirokida ishlayotgan. Natijada 5,5 mingga yaqin qo'shimcha ish o'rinlari tashkil qilinib, shundan 70 foizi qishloq joylarida ekanligi diqqatga sazavordir (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Namangan viloyati qo'shma korxonalarining hududiy tarkibii (2010 yil)

	Jami ro'yhatga olinganlari	jumladan, faoliyat ko'rsatayotganlari	Faoliyat ko'rsatayotganlari jamiga nisbatan, foiz hisobida
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>54</b>	<b>47</b>	<b>87,0</b>
<b>Tumanlar:</b>			
Namangan sh.	26	23	88,5
Mingbuloq	1	1	100,0
Kosonsoy	3	2	66,7
Namangan	5	5	100,0
Norin	1	1	100,0
Pop	3	2	66,7
To'raqo'rg'on	2	1	50,0
Uychi	5	4	80,0
Uchqo'rg'on	-	-	-
CHortoq	2	2	100,0
CHust	5	5	100,0
Yangiqo'rg'on	1	1	100,0

**\*Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

2010 yil yakuni bilan viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar tomonidan 155852,9 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan (87535,3 mln.so'm) 178,0 foizni tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi eksportga yo'naltirilishi belgilangan. Jumladan, hisob-kitoblarga ko'ra qo'shma korxonalar tomonidan 2010 yilda jami ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar eksporti 50,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa,

joriy yilda ushbu ko'rsatkich yangi eksportyor korxonalar «Xain teks» XK (4289,0 ming doll), «Namangan sharbati» QK (1860,3 ming doll), «MRT tekstil» (4283,9 ming doll.) kabi korxonalar qo'shilishi hisobiga 90,0 mln. AQSH dollarini yoki o'sish sur'ati 104,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2010 yil mobaynida viloyatda 5 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etildi. Jumladan, Namangan shahrida mebel hom-ashyosi ishlab chiqaruvchi «Prima-mebel», qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Afruz Kamol Nabi», sharbat ishlab chiqaruvchi «Namangan sharbati», Asakadagi avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun fonar chiroqlar ishlab chiqaruvchi «Uzchassiz» qo'shma korxonalari hamda Kosonsoy tumanida tabiiy va sun'iy charm ishlab chiqaruvchi «Treydvell interneysnl» xorijiy korxonalari tashkil etildi.

SHuningdek, qurilish tizimini hududiy tashkil etishda tashqi iqtisodiy savdo jarayonining rivojlantirishi muhim omil ekanligi hammaga ma'lum. CHunki, tashqi savdo mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi, uning jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi o'rnini belgilab beruvchi makroiqtisodiy «barometr»dir. Tashqi savdo balansining buzilishi mamlakatda eksportni importga nisbatan pastroq o'sayotganligidan dalolat beradi.

Namangan viloyatida so'nggi yillarda, respublika tashqi iqtisodiy faoliyatining muhim sub'ekti sifatida, tashqi savdo aylanmasi eksport va import ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishildi. 2010 yilda viloyat bo'yicha umumiy tashqi savdo aylamasi jismoniy shaxslarni qo'shgan holda 474369,9 ming AQSH dollarini tashkil etib, shundan eksport 330236,3 ming AQSH dollarini, import esa 144133,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi (5-jadval).

Hamdo'stlik davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 319299,4 ming AQSH dollarini tashkil qildi. SHundan eksport 238466,5 ming AQSH dollariga, import 81040,9 ming AQSH dollariga yetdi. Uzoq xorij davlatlari bilan savdo aylanmasi esa 155070,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, 2009 yilga nisbatan 104,1 foizni shundan eksport 91961,6 ming AQSH dollarini yoki 80,2 foizni, import hajmi esa 63108,9 ming AQSH dollarini yoki 153,9 foizni tashkil etdi.

#### 5-jadval

#### Namangan viloyati shahar va tumanlarida tashqi savdo aylanmasi tarkibi(ming AQSH dollari hisobida)

	Tashqi savdo aylanmasi	jumladan	
		eksport	import
Viloyat bo'yicha:	<b>474369,9</b>	<b>330236,3</b>	<b>144133,6</b>
<b>Tumanlar:</b>			
Namangan sh.	99250,5	33578,0	65672,5
Mingbuloq	3771,6	3707,8	63,8
Kosonsoy	6140,7	5411,4	729,3
Namangan	24448,3	18086,5	6361,8
Norin	3972,4	3735,7	236,7
Pop	14426,8	12931,2	1495,6
To'raqo'rg'on	6862,0	3149,0	3713,0
Uychi	8255,3	6620,6	1634,7
Uchqo'rg'on	5850,3	4288,7	1561,6
CHortoq	2316,0	1048,4	1267,6
CHust	271593,8	221704,8	49889,0
Yangiqo'rg'on	19253,6	14087,9	5165,7

**\*Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

SHuningdek, tashqi savdoning geografik tuzilmasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi va uning kengayib borish alomatlarini kuzatildi. Xolbuki, 1991 yilda u amalda faqat MDH mamlakatlari tomonidan yo'naltirilgan bo'lsa, 2010 yil yakuniy natijalariga qaraganda viloyat tashqi savdosida uzoq xorijiy mamlakatlarning ulushi 69,3 foizni tashkil etdi, Namangan viloyati tashqi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bundan tashqari, MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoda ham ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Viloyat tashqi savdosida MDH mamlakatlarining ulushi 30,7 foizni tashkil etdi. Fikrimizcha, mintaqaviy barqarorlik, mintaqada darajasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal etishda MDH davlatlari bilan ustuvor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va MDH mamlakatlariga, qolaversa, uzoq xorij mamlakatlariga o'zbek tovarlarini eksport qilish uchun tranzit bozorlardan biri sifatida qarash lozimdir. Hozirgi paytda, viloyat eksporti dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari tomon qaratilgan bo'lib, uning tarkibini iqtisodiy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda an'anaviy xom ashyo tovarlari bilan bir qatorda, turli ko'rinishdagi oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar, shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda, ya'ni eksport tarkibida qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushi salmoqli darajada o'sgan. Bugungi kunda Namangan viloyati uchun ham eng avvalo, tashqi savdoni tariflar orqali tartibga solish iqtisodiy faoliyat yuqori samaradorligiga erishishning ta'sirchan usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2010 yil ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyatining respublika sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,5 foizga teng. Bu jihatdan u mamlakatda o'rtacha ko'rsatkichga ega. Viloyatda 38 ta yirik sanoat korxonalar mavjud bo'lib, hisobot davrida ularning 35 tasi faoliyat ko'rsatdi. SHular qatorida, 637 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar, 37 ta yordamchi sanoat korxonalar hamda 3275 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar sanoat mahsuloti ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullandilar.

Ular tomonidan 748671,4 mln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot ulushi 64,1 foizni tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha esa 98,7 foiz maxsulot nodavlat sektor hissasi to'g'ri keladi. Bundan mos ravishda 60 foizi aksionerlik jamiyatlari, 14,6 foizi xususiy mulk sub'ektlari, 20 foizi qo'shma korxonalar, 2,5 foizi esa ma'suliyati cheklangan jamiyatlar hissasi to'g'ri keladi. Davlat tasarrufidagi korxonalar esa atigi 1,3 foiz mahsulot ulushiga ega.

Mulkchilik shakllari jihatidan 98,7 foiz mahsulot nodavlat sektor hissasi to'g'ri keladi. Uning 60 foizi aksionerlik jamiyatlari hissasi, 14,6 foizi xususiy mulk sub'ektlari, 20 foizi qo'shma korxonalar va 2,5 foizi mos ravaishda ma'suliyati cheklangan jamiyatlarga to'g'ri keladi. Davlat tasarrufidagi korxonalar esa 1,3 % mahsulot ulushiga ega.

Tarmoqlar bo'yicha yengil sanoat ulushi 58,3 foiz, oziq-ovqat sanoati 18,9 foiz, qurilish materiallari ishlab chiqarish 6,6 foiz, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 3,0 foiz, kimyo va neftni qayta ishlash 1,6 yog'ochni qayta ishlash 1,3 foizni tashkil etadi.

Ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki sanoat ishlab chiqarishda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining hissasi yuqori darajada. Buning asosiy sababi SHimoliy Farg'ona adirlar mintaqasida mazkur tarmoqlarni rivojlantirish uchun yetarli xom-ashyoning mavjudligi va sanoat korxonalarining tarmoq ixtisoslashuvidir. Yoqilg'i, kimyo, yog'ochni qayta ishlash va poligrafiya sanoati tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushlari sezilarli darajada past. Zero, ushbu sanoat tarmoqlarining hududiy joylanishi va rivojlantirish omillari mintaqada yetarli darajada emas.

Bugungi kunda mintaqada 60 turdan ortiq sanoat mollari ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmi shahar va tumanlar bo'yicha hududiy farqlarga ega. CHunonchi, Namangan

shahri, Pop, Uchqo'rg'on, Uychi, Namangan tumanlari o'zlarining sanoat mollari ishlab chiqarishiga ko'ra alohida salohiyatga ega. Mazkur xududiy tuzilmalar viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 76,3 foizini beradi, shu jumladan Namangan shahri 41,8 foiz, Pop tumani 15,1 foiz, Uchqo'rg'on tumani 9,1 foiz, Uychi tumani 5,1 foiz, Namangan tumani 5,2 foiz hissaga ega. SHuningdek, Mingbuloq, To'raqo'rg'on, CHortoq, CHust, tumanlarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi viloyatni respublika sanoatidagi salmog'iga deyarli teng.

Viloyat sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishda Namangan shahri sanoati ishlab chiqarish hajmiga ko'ra alohida ajralib turadi. Bunga uning iqtisodiy geografik o'rni, qolaversa ishlab chiqarish korxonalarini hududiy tashkil etish uchun barcha omillarni mavjudligi va ishlab chiqarish korxonalarining yuqori darajada mujassamlashganligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHu bilan birga, Pop, Uchqo'rg'on, Namangan va Uychi tumanlarida bunday shart-sharoitlar majmui boshqa tumanlarga nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Bugungi kunda qulay agroiklimiy sharoit va omillar ta'sirida mintaqa qishloq xo'jaligida o'ziga hos tarmoqlar va hududlar ishlab chiqarishi vujudga keldi. Viloyatda 282,7 ming gektar (2007 yil) sug'oriladigan yerlar bo'lib, shundan, ekin yerlari 196,2 ming ga ni, ko'p yillik daraxtzorlar 36,1 ming ga ni, bo'z yerlar 3,4 ming ga ni, 987 gektarni esa meliorativ qurilish holatidagi yerlar tashkil etadi. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi 21,3 % ga teng. Mintaqada asosan obikor dehqonchilik rivojlangan bo'lib, paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va polizchilik tarmoqlari shakllangan. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari tarkibida g'alla maydonlarining kengaytirish xisobiga tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Istiqolning dastlabki yillarida mintaqada **390 ming** tonna paxta, 104 ming tonna don yetishtirilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich paxtachilikda 261,0 ming, donchilikda esa 460,3 ming tonnaga teng bo'ldi. Mazkur davrda paxta maydonlari 125,4 ming gektardan 107,3 ming gektarga qisqartirilib, donli ekinlar maydoni 23,1 mingdan 87,1 ming gektarga ko'paydi. Xuddi shuningdek qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda sabzavotchilik maydoni va yetishtirilgan mahsulot hajmi ushbu davrlarda ortgan. Polizchilik maydonlari esa mustaqillik yillarida 63 % ga qisqartirilgan. Xuddi shuningdek chorvachilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayni chog'da, viloyat qishloq xo'jaligida chorvachilik ikkinchi soha hisoblanib, qo'ychilik va echkichilik, qoramolchilik hamda parrandachilik asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Biroq, mazkur tarmoqlar mahsulot ishlab chiqarishida aholi xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, ixtisoslashgan soha hisoblanmaydi. Hozirda hududda go'sht, sut, tuxum, pilla, jun mahsulotlari yetishtiriladi. 1990 yilda 20,4 ming tonna go'sht, 75,0 ming tonna sut, 3,4 ming tonna jun, 3,3 ming tonna pilla yetishtirilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkichlar go'sht tayyorlashda 65,7 ming, sutda 314,3 ming, junda 972,4, pillada 7,1 ming tonnaga teng bo'ldi. Aholi xo'jaliklarida go'sht 96,1, sut 97,6, tuxum 72,1, jun 94,3 foiz ko'rsatgichga ega. Fermer xo'jaliklar ulushi esa juda oz miqdorni tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi barcha qoramollar soni 427,4 mingtani tashkil etib, xo'jaliklar bo'yicha salmog'i notekis taqsimlangan. Mavjud chorvaning 92,9 foizi aholi xo'jaliklariga, 3,6 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga, 3,5 foizi fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash xududiy tarkibining tahlil qilinadigan bo'lsa, paxta barcha tumanlar uchun xos ekin turi hisoblanadi. Binobarin, Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on tumanlari bu sohada yetakchi hisoblanib, viloyatdagi paxta maydonlarining 466 foizini egallagan holda hosilni 42,3 foizini beradi. Binobarin, donchilik ham hamma tumanlar uchun ixtisoslashgan soha hisoblanadi. Don tayyorlashda Kosonsoy, CHust, Yangiqo'rg'on, Pop tumanlari ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sabzavotchilik va kartoshka yetishtirish SHimoliy Farg'ona adirlarining shimoliy-sharqiy, markaziy qismida joylashgan tumanlar uchun xos ekin turidir. Bu mintaqalarda viloyat sabzavotchiligining 53,0, kartoshkaning 88,4 foizini tayyorlanadi.

Yuqrida keltirilgan iqtisodiy tahlilga asosan Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun imkoniyatlarini ijobiy baholash mumkin.

## **2.2. Namangan viloyati qishloq xo'jaligi kooperatsiya munosabatlarini iqtisodiy tahlili**

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, har bir sohani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ko'p millionlik o'zbek halqini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun qishloq xo'jaligidagi kooperatsion munosabatlarni iqtisodiy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunning muhim talabidir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj faqat turdagina namoyon bo'lmay, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifat darajasi, iste'molchilarga yaqinligi narx ko'rsatkichlariga hududning ta'siri va eng muhimi bozor talabiga mosligi bilan tavsiflanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuzaga kelib rivojlanmoqda. Agrar sektorda fermer va dehqon xo'jaliklarining miqdori va ishlab chiqarishdagi ulushlari ortib bormoqda. Ayniqsa, iste'mol bozorini kartoshka, sabzavot va turli xil mevalar bilan ta'minlashda ularning hissasi juda kattadir.

Viloyatda tashkil etilgan 29 ta agrofimlar bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan 12,3 mlrd.so'mlik 163,7 ming tonna mahsulot yetkazib berilib, shartnoma 100,2 foizga bajarildi. Fermerlarga oldindan 1115,4 mln. so'm (rejaga nisbatan 110,9 %) avans berildi. Agrofimlar faoliyatini yuritish, ularni aylanma mablag' bilan ta'minlash maqsadida 865,9 mln.so'm (100,9%) kredit mablag'lari ajratib berildi.

Agrofimlar tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti uchun 22,7 ming tonna, 3495,4 mln so'mlik shartnomalar tuzilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining №145 sonli, Viloyat hokimining №140 sonli qaroriga asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish vazifasi «Namanganulgurji-savdoinvest» MCHJ, «Namangansavdo ulgurji baza» MCHJ hamda Matlubotsavdo tizimidagi «Matlubotsanoat» sho'ba korxonasi va «Agrolayfmatlubotsavdo» korxonalarini zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu qarorga asosan 2009 yilda ular tomonidan 15,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot, poliz va uzum mahsulotlari eksport qilindi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida nodavlat sektorining kuchayishi hamda rivojlanishiga chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlarining ishlab chiqarishini mazkur sektorga ko'chganligi hamda bunday mahsulotlarga davlat buyurtmalarini bekor qilinishiga asos soldi.<sup>3</sup>

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xo'jaliklari qatorida ko'p miqdorli aholi, dehqon va fermer xo'jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishiga undamoqda.

CHunki qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga talofatsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo'lgan mahsulotlarning qishloq xo'jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

CHunki, hozirgi vaqtda respublikamizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarning bir qismi iste'molchilarga yetib bormayapti. Masalan, A.Ayupovning ma'lumotlariga qaraganda meva-sabzavotlarning 30foiz iste'molchilarga yetib bormasdan nobud bo'larkan.<sup>4</sup>

Respublika meva-sabzavotchiligidagi yuzaga kelgan bunday noqulay sharoitni bartaraf etish, sohaning barcha infratuzilma tarmoqlari va mahsulot bozorini takomillashtirishni talab qiladi.

Ayni paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tayyorlov va sotuv kanallari quyidagilardir:

1. Ishlab chiqaruvchilar – Davlat – Iste'molchilar;

---

<sup>1</sup>Uzbekistan:desyat' let po puti formirovaniya rymochnoy ekonomiki./koll.avt.:R.A.Alimov, A.K.Bedrintsov, A.F.Rasulov i dr. T.:Uzbekiston, 2001.-(352s), 98-99 b.

<sup>4</sup> Yedinaya Xolodil'naya TSet' Respublika Uzbekistan //Eksport plodovomnoy produktsii dexkanskih i fermerskih xozyaystv v Uzbekistane: dostignutyie rezultaty i perspektivy razvitiya. Sb.nauch.stat.Tashketn, 2009, s.128.

2. Ishlab chiqaruvchilar – Dehqon bozori – Iste'molchilar;
3. Ishlab chiqaruvchilar – Xususiy (kichik) olib sotarlar – Dehqon bozori – Iste'molchilar;
4. Ishlab chiqaruvchilar – «O'zbekbirlashuv», «O'zbeksavdo» tashkilotlari – CHakana savdo – Iste'molchilar;
5. Ishlab chiqaruvchilar – Vositachilar – Tovar xom ashyo birjalari – Ulgurji (xususiy) tayyorlov tashkilotlari – CHakana savdo – Iste'molchilar;
6. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalarini – Ulgurji savdo korxonalarini – CHakana savdo – Iste'molchilar;
7. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalarini – CHakana savdo – Iste'molchilar;

Paxta xom ashyosi, don, tamaki asosan birinchi kanal orqali tayyorlanadi. Ikkinchi kanal an'anaviy bo'lib, istiqbollidir. Mazkur kanal orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuv hajmi 56 foiz va undan ortiqni oxirgi yillarda tashkil etmoqda.<sup>5</sup>

Dehqon bozorlarida xaridor va sotuvchilarning erkinliklarini ta'minlagan holda, o'z moddiy-texnika bazasi (shu jumladan o'z transporti saqlash omborxonalarini, muzlatgichlari, yopiq vitrinalari...)ga ega bo'lgan tayyorlov guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu qilinadigan xarajatlar tez orada o'zini qoplaydi. Chunki ayni paytda ko'pchilik savdogarlar mahsulot qoldiqlarini kun yakunida uylariga olib borib, ertangi kunda qaytib bozorga olib keladilar. Yirik shaharlarda to'la infratuzilma xizmatlari majmuiga ega bo'lgan ulgurji qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorini tashkil etilishi va ularning o'zlari mahsulot tayyorlash, saqlash hamda ulgurji (yoki chakana) savdo bilash shug'ullanishlari yuqori samara berishi mumkin. Bunday bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash, navlarga ajratish va nostandart tovarlarni qayta ishlashini yo'lga qo'yishi ularning samaradorligini yanada oshiradi. Bu bilan birga yangi ish joylari yaratilishi mumkin. Eng muhim qadoqlash natijasida mahsulotning qayta ishlash va saqlanishi qulaylashadi. Mazkur bozordagi mahsulotni qayta ishlash va boshqa chiqindilarni chorvachilik fermerlariga sotish yoki bozorning yonida o'z chorvachilik yordamchi xo'jaliklarini tashkil qilish ham ijobiy samara berishi muqarrardir.

Dehqon bozorlarini o'zaro kooperatsiyalashuvlari asosida tez buziladigan mahsulotlarning qayta ishlash tseklarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining saqlash omborlarini qurish yoki ijaraga olishni yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ayni paytda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash omborlaridan foydalanish darajasi juda pastdir.

Viloyatda meva – sabzavot va kartoshka saqlash omborlarida sig'irish darajasida mahsulot zahira qilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Omborlarni meva – sabzavot, kartoshka saqlash uchun yaroqli holga keltirish;
2. Kartoshka, meva va sabzavotni yetishtiruvchilardan sotib olish uchun tayyorlov korxonalariga yetarli mablag'larni ega bo'lish uchun sharoit yaratish;
3. Mahsulotlarni saqlash uchun yetarli energiya manbai bilan ta'minlash;
4. Omborlarni xususiylashtirish va ishbilarmon va tadbirkorlarga berish;
5. Omborlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun tara va konteynerlarning yetarli bo'lishini ta'minlash.

Dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining realizatsiyasini ulgurji savdo birlarida tuziladigan fyuchers va boshqa shartnomalar orqali amalga oshirilishi samaraliroqligini ko'rsatmoqda. Bizning mamlakatimizda tovar xom ashyo birjalarida tuzilgan shartnomalar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuv hajmlari yil sayin o'sib bormoqda. Umuman, respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotish tizimida bozor unsurlari asta sekinlik bilan shakllanib rivoj topmoqda.

Agrosanoat korxonalarining shakllanishi va rivojlanishi viloyatning ixtisoslashuvi, shuningdek, respublika mehnat taqsimotida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Namangan viloyati

<sup>5</sup> M.A.Oripov. Ne poteryat' – znachit priumnojity // Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana. №10, 2000, s.14-15.

agrosanoat korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. SHu bilan birga viloyatda qishloq xo'jaligining mamlakatdagi an'anaviy tarmoqlaridan chorvachilik, mevachilik, sut-go'sht, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik keng rivojlangan.

Viloyatda agrosanoat integratsiyasini samaradorligini quyidagilarda tumanlar kesimida bo'lib ajratish mumkin:

1. CHortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, CHust tumanlarida bog'dorchilik, uzumchilik miqyosda rivojlangan, aholini asosiy qismi mazkur tarmoqlarda band;

2. Uchqo'rg'on, Uychi, Norin tumanlarida don, dukkakli o'simliklar ko'p yetishtiriladi, ammo xom ashyo ko'rinishida bozorlarni to'ldiradi;

3. Mingbuloq, Namangan tumanlarining mahalliy xo'jaliklariga tayangan holda rivojlanadi. Namangan shahar oziq-ovqat bozorini yangi turdagi mahsulotlar bilan to'ldiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda aholining hissasi ortib bormoqda. Kartoshka va sabzavotlarning 81,5 go'shtning 97.0 foizdan ortiqrog'i, sutning deyarli 98 foizi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda.

Namangan viloyatining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim o'rinni eg'allaydigan go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibiga nazar tashlasak, dehqon xo'jaliklarining hissasi kattaroq ekanligini ko'ramiz.

Namangan viloyatining sut mahsulotlarini hozirgi kunda sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va savdo strukturalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar yoki vositalar orqali realizatsiya qilinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'zaro aloqalarning bunday turining vujudga kelishi iqtisodiy jihatdan to'la o'zini oqlagan. Ammo ular faoliyatining harakat mexanizmi ishlab chiqilmagan hamda boshqarib bo'lmaydigan tovar oqimlari va oziq-ovqat bozorining yetishmasligi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlangan va imte'mol qilishda ma'lum nomutanosibliklarga olib keladi. Aynan shunday holat umuman oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda xususan sut mahsulotlari bilan sodir bo'ldi.

SHu bilan birga agar hozirgi darajada sut ishlab hajmini nisbatan sekin o'sishi keyingi 3-4 yil davomida ham ko'zatilsa, sut mahsulotlari bilan ta'minlashda muammolar kelib chiqadi va aholining turmush darajasiga ta'sir etadi. Sut ishlab chiqarishning mavsumiyligi va qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqaruvchilaridan o'zoqligi muammoni yanada chuqurlashtiradi. Sutni qayta ishlovchi «Namangansut»hissadorlik jamiyatining yillik ishlab chiqarish quvvati 2252,2 sut mahsulotlari, 10 t pishloqni 125 t tashkil etadi.

Namangan hissadorlik jamiyatida keyingi yillar davomida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 50 foizdan oshmaganligiga qaramasdan yil yakunida ma'lum miqdorda foyda olingan. Afsuski, chorvachilik mahsulotlariga tuzilgan shartnomalarning bajarilishini tahlil qilish ularning o'ta qoniqarsizligini ko'rsatmoqda. Vaholanki, chorvachilik xo'jaliklari topshirgan mahsulotlari uchun pul to'lovlarining vaqtida amalga oshirolmayotganligi hamda ular bilan qayta ishlash korxonalarini o'rtasida tuzilgan shartnomalarning to'la bajarilmay qolishi yoki bo'zishi – ishlab chiqarishni ta'minlash va mehnatga haq to'lash maqsadida qoramollarni yetarlicha semirtmasdan sotishga olib kelmoqda. Natijada, viloyatning barcha xo'jaliklarida chorvachilik mollari bosh sonlarining, shu jumladan sigirlarning keskin kamayishiga hamda chorvadorlarning o'z mehnati yakunidan moddiy manfaatdorligining susayishiga jiddiy ta'sir qilmoqda.

Namangan viloyatida oxirgi yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ahvoriga nazar solsak ko'rsatkichlar muttasil o'sib borayotganligi ko'ramiz.

Umuman, agrosanoat integratsiyasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish xo'jalikning a'zolariga, dehqon bozorlari, tayyorlov tashkilotlari va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari qo'yidagicha bo'ldi (6-jadval).

Bundan tashqari agrosanoat integratsiyasi samaradorligini narxlar nomutanosibligi, savdo va servis strukturalarining monopolligi, to'lovlarining doimiy kechikishi, davlat tomonidan moliyalashning qisqarishi, kredit xizmatlarining noqulayligi va boshqa omillar pasaytirmoqda. Agrosanoat korxonalarida mevalar va poliz mahsulotlari ishlab chiqarishda ham yuqori

natijalarni (ularni yetishtirish deyarli 1,5 marta oshgan) ko'zatisish mumkin. Lekin sabzavotlar va guruch yetishtirishda mahsulot hajmi kamayib ketishiga yo'l qo'yildi. Bu esa viloyat aholisini oziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlashda ma'lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

6-jadval

**Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari<sup>5</sup>**

№	Asosiy mahsulot turlari	O'lchov birligi	yillar			
			2006	2007	2008	2009
1	Tozalangan o'simlik yog'i	m. tonna	14,0	12,3	15,8	17,4
2	Hayvon yog'i	tonna	51	121	71	19
3	Yog' mahsulotlari	tonna	7,3	6,0	-	-
4	Tozalangan o'simlik yog'i	m. tonna	16	14,6	18,5	20,1
5	Konserva mahsulotlari	Mln.sh.b.	31	18,0	21,1	17,5
6	Go'sht va go'sht mahsulotlari	tonna	8213	6642	5022	5519
7	Kolbasa mahsulotlari	tonna	224	105	123	127
8	Sut va sut mahsulotlari	m. tonna	12,4	15,3	18,8	22,2
9	Pishloq	tonna	0,0	0,0	6,0	10
10	Non va non mahsulotlari	tonna	35,1	32,3	32,9	33,9
11	Qandolat mahsulotlari	tonna	1010	431	182	124
12	Makaron max.	m. tonna	2,8	2,6	1,5	1,7
13	Alkogolsiz ichimliklar	m. tonna	174	31	551	1232
14	Mineral suvlar	m. tonna	80625	94,6	95	106,2
15	Un va don mahsulotlari	m. tonna	134,3	165,8	130,6	139,9
16	Quruq meva sabzavotlar	m. tonna	1,0	2,3	3,0	3,1
17	Qadoqlangan bolalar ovqati	tonna	417,0	236,0	355,0	526
18	Spirтли ichimliklar	Ming dona	-	1	9	9
19	Uzum vinosi	Ming dona	367	257	429	490
20	Aroq	Ming dona	150	134	188	230

\*Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Viloyatdagi agrar soha korxonalarida marketingni yaratishga sezilarli e'tibor berilmayapti, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda nobudgarchilikning ko'pashi shundan dalolat beradi. Bunda agrar bozorning yetarli rivojlanmaganligi sabab qilib ko'rsatish hamda asosiy qiyinchiliklar sifatida nomutanosiblik, taqchilik yuqori narxlar, qayta ishlashda raqobatning sustligi kabi salbiy holatlarni ko'rsatish mumkin.

Meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish asosida, yuqori darajada sanoatlashgan va eksportga mo'ljallangan qayta ishlash tizimi barpo etish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'lamini oshirishning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Namangan viloyatida agrosanoat integratsiyasining barqaror rivojlanishi tabiiy shart-sharoit, ijtimoiy-demografik xususiyatlar, ishlab chiqarishning tarmoq ixtisoslashuvi kabi omillar uyg'unligi bilan uzviy aloqadorlikka ega. SHuningdek, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning barqarorligiga erishish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa, **birinchidan**,

<sup>5</sup> Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari

respublika va mahalliy byudjetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga, agrosanoat majmuining mamlakat milliy daromadini shakllantirishdagi ulushiga mos holda investitsiyalar hajmini oshirish, **ikkinchidan**, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash sohasidagi ilmiy-texnik o'sishni va sifat jihatdan yangi texnologiyalarni qo'llash tizimini rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, **uchinchidan**, chorvachilik, parrandachilik va qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalanayotgan xo'jalik va tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda tizimli va dasturli yondoshuv talab etiladi. SHu bilan birga, go'sht va sut mahsulotlarining kelajakdagi bazasi – chorva naslchiligini boyitish va takomillashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning agrar sektorida maxsus kredit tizimini ishlab chiqish va oziq-ovqat bozoriga tijorat investitsiyalarini jalb etishni keng yo'lga qo'yish ham kutilgan natijalarni beradi.

Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlaridan ma'danli suv, bolalar ozuqasi, sut va sut mahsulotlari, tabiiy sharbat, konserva, quritilgan mevalar tayyorlanadi. Oziq-ovqat sanoati tarmog'ida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2007 yilda 60470,5 mln. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 17,3 foiz yoki 8918,3 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish ko'paygani kuzatildi.

Ish xaqi moddiy rag'bat sifatida kishilar mafaatlari ta'sir etishning muhim vositasi bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsus tovar bo'lgan ishchi kuchi bahosi sifatida namoyon bo'ladi, mehnatdan foydalanganlik uchun to'lanadigan moddiy qimmatlik miqdorini ifodalaydi. Bunday sharoitda ish xaqi miqdori mehnatning pirovard natijalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishda o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarining ko'proq va to'laqonli qondirilishi borasida chorvachilikni rivojlantirish uchun mintaqaning imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Ayniqsa bu borada mamlakat Prezidentining 2007 yilda qabul qilgan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va chorva hayonlari sonini ko'paytirishga qaratilgan qarori alohida ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga viloyat go'sht va sut mahsulotlari bozoridagi muammolarni hal qilish uchun xo'jaliklarning chorvachilikka ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bilan birga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- chorvachilik mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi ulgurji savdo va tayyorlov korxonalarini tizimini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim. Bu borada, hozirgi kunda o'rnatilgan tartib, ya'ni, ulgurji savdo korxonalarini uchun qo'yilgan talablarni bir muncha yengillashtirish, ularni moddiy-texnik qurollantirish maqsadida lizing shartnomalari asosida transport vositalari va texnik jihozlar (ayniqsa, mahsulotlarni saqlash va o'rash bo'yicha) bilan ta'minlash masalalarini hal qilish;
- chorvachilik tarmog'ida samaradorlikning oshishini ta'minlash uchun tadbirkorlik salohiyati yuqori bo'lgan rahbar va mutaxassislar tayyorlashga jiddiy yondashish hamda xodimlarda, birinchi galda boshqaruv xodimlarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalarida xususiy chorvachilik xo'jaliklari uchun kichik mutaxassislarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, bu borada kollejar talabalarining amaliyot ob'ektlari bilan ta'minlanishi masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, chorvachilik tizimida xo'jalik yuritish va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni erkin yoki shartnomaviy narxlarda sotish xuquqi berilgan. CHorvachilik mahsulotiga davlat buyurtmasi bekor qilingan. Ammo qayta ishlash korxonalarini chorvachilik mahsulotlarini sotib oluvchi yirik iste'molchilar sifatida o'z mavqelarini monopolistik xarakterda saqlab qolmoqdalar. Viloyatda hozirgi vaqtda go'shtni qayta ishlovchi bir qator korxonalar mavjud. Jumladan, 2009 yilda viloyat bo'yicha tarmoq korxonalarida jami 65, 7 tonna go'sht mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu boradagi ta'minot tizimida dexqon xo'jaliklarining ulushi ortib bormoqda. Lekin, bu ko'rsatkich mavjud salohiyat darajasiga javob

bera olmaydi. Mazkur korxonalarining joylashuvini tahlil qilar ekanmiz, ularning aksariyat viloyat markazi Namangan shahri atrofida joylashganini kuzatish mumkin. Kelajakda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi go'sht mahsulotlarining miqdorini oshirish maqsadida hamda dehqon xo'jaliklarining joylashuvi, shuningdek, ulardagi ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisob olgan holda istiqbolda shunday korxonalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Bu borada birinchidan, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar manfaati, ikkinchidan, viloyatning aholi zich bo'lgan hududlari – CHust, Kosonsoy, Norin, Uchqo'rg'on kabi tumanlar ichki bozorlari iste'molchilari manfaatlarini e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi muammoni hal qilish uchun viloyatda mavjud «Namangan sut» va «Namangango'sht» qayta ishlash korxonalarining moliya-xo'jalik hamda texnik-texnologik imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda ixtisoslashgan kichik korxonalar tizimini tashkil qilish bilan bir qatorda mazkur korxonalarining joylarda filiallarini, qabul qilish va tayyorlov tuzilmalarini barpo etish, shuningdek, mazkur korxonalarining birlamchi mahsulotlarni xarid qilishlari uchun imtiyozli kreditlar bilan ta'minlanishiga erishish tavsiya etiladi.

CHorvachilik mahsulotlariga tuzilgan shartnomalarning bajarilishini hamda chorvachilik xo'jaliklari topshirgan mahsulotlari uchun pul to'lovlarning vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish kerak.

Amaliyot tajribalaridagi kuzatishlar ko'rsatishicha, 1 tonna sutni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotish evaziga 300-350 ming so'm qo'shimcha foyda olish imkoniyati mavjuddir. SHu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida chorvachilik xo'jaliklarida yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik tsexlarni tashkil qilish va qayta ishlash korxonalarini bilan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga hamda hududda chorvachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'yicha yagona maqsadli ishlab chiqarish kooperatsiyalarini tashkil qilishga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda, ushbu taklif qilinayotgan kooperatsiya zaminidagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hamda sotish jarayoni biron-bir tuman miqyosida olib qaraladigan bo'lsa, uning marketing tizimi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. Jumladan, sut ishlab chiqarish kooperatsiyasida turli aholi yashash punktlarida sutni qabul qilish markazlari tashkil kilinadi. Ushbu markaz sutni kabul qilish, uning sifatini aniqlash, saqlash kabi zamonaviy uskunalarga ega bo'lishi lozim. Sutni qabul qilish, ya'ni tayyorlov markazlaridan shu hududdagi kichik va yirik qayta ishlash korxonalariga sut yetkazib beriladi. Sutni qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'zlarining savdo shaxobchalarida hamda xususiy yoki davlat savdo sub'ektlari orqali sotiladi. Ta'kidlash kerakki, tumanlararo yoki alohida tuman doirasida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqish, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha kooperatsiya jarayonini rivojlantirish eng avvalo chorvachilik xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarishda yuqoriroq manfaatdorlikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sabzavotchilikning rivojlanishi sezilarli darajada savdo-xarid tizimining takomillashtirilishi bilan bog'liq. Bozor sharoitlariga va tarmoqning xususiyatlariga mos bo'lgan ulgurji bozorlarni tashkil qilish, bozor infratuzilmasini shakllantirish – sabzavot mahsulotlarining tovarlilik darajasini oshirish va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash muamolarini hal qilishga yordam beradi.

Iqtisodiyotni, shu jumladan oziq-ovqat tovarlari bozorini isloh qilish, ustivor yo'nalishlarni takomillashtirish, bozor o'zgarishlarining strategiyasi va taktikasini o'zgartirish-kelajakda agrosanoat majmuida samarali xo'jaliklararo va tarmoqlararo iqtisodiy munosabatlarni ta'minlashi kerak. Agrosanoat integratsiyasini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- viloyatda yuqori darajadagi ishlab chiqarishning o'sishi va real tovar ta'minoti bilan mustahkamlangan aholining to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talabni bosqichma bosqich oshirib borish;

- oziq-ovqat mahsulotlari va ularni yetishtirish uchun qishlok xo'jaligida ishlatiladigan sanoat mahsulotlarining narxini mutanosiblashtirish; tarmoqlar o'rtasida balanslashgan tovar ayriboshlanishiga erishish;
- moliyalashtirish va uzoq muddatli kredit berishning dasturiy-maqсадli mexanizmidan foydalanish, oziq-ovqat bozori rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini imtiyozli kreditlovchi maxsus fondlarni shakllantirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va tashish sohasida energiya va resurslarni tejoyvchi texnologiyalarni keng tarqatish;
- mahsulotni dastlabki qayta ishlash va saqlash uchun yetarli moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan mintaqaviy va mintaqalararo ulgurji agrosanoat korxonalarini tarmoklarini shakllantirish.

Yuqorida tavsiya qilingan chora-tadbirlar o'z vaqtida to'laqonli amalga oshirilsa, Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda hamda aholining o'sish sur'atlariga mutanosib ravishda oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi bo'shliqni to'ldirish imkoniyati paydo bo'ladi. SHuningdek, qishloq xo'jaligida kooperatsion munosabatlar yanada chuqurlashadi.

### **2.3. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligidagi kooperatsiya munosabatlarini tashkiliy iqtisodiy asoslari**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, agrar sohada ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligi sohasida mulkdorlar sinfi shakllandi. Prezidentimizning 2009 yilning "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" va 2011 yilni esa "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi hamda u borada maxsus davlat dasturini qabul qilish mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtiradi. Mazkur davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha mintaqalarda aniq rejalar ishlab chiqilgan, ya'ni davlat dasturi asosida viloyat va tumanlar darajasida ham vazifa qilib belgilangani bu ishlarning naqadar muhim ekanligiga ishoradir. Bugungi kunda ana shu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami mamlakatimizning barcha xududlarida shu jumladan, Namangan viloyatida ham o'zining samarasini ko'rsatmoqda.

Viloyat qishloq xo'jaligida bozor munosabatlari takomillashtirilib mavjud 147 ta shirkat xo'jaligi to'la tugatilib ular o'rniga fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etildi va yer haqiqiy egasiga topshirildi. Bugungi kunda viloyat bo'yicha 6983 taga yaqin fermer xo'jaliklari bo'lib, ularga birlashtirilgan yer maydoni 278,1 ming gektarni tashkil etadi. Bu fermer xo'jaligini viloyat iqtisodiyotida katta kuchga aylanganligini ko'rsatadi. 2010 yilda viloyatdagi yalpi mahsulot qiymatining 30,6 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilganligi ham yuqoridagi fikrimizni dalilidir. SHuningdek, viloyatda 439,5 ming dehqon xo'jaliklari bo'lib, 354 nafari yuridik maqomga ega.

Yuqoridagi dasturning asosiy yo'nalishlaridan biri fermer, dehqon va uy xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va shular hisobiga qishloq joylarida ixcham texnologiyalar bilan jihozlangan yangi, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini barpo etish hamda ularning keng ko'lamda faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan xomashyo bazasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bunday ishlab chiqarish korxonalarini viloyatning barcha tuman va qishloqlarida ishga tushirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat ishlab chiqarishning yangi quvvatlarida va yalpi ichki mahsulot hajmini oshiribgina qolmay, eng muhimi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'payishi imkonini beradi. Ma'lumki oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj yuksalib boradi. SHuningdek, masalani ikkinchi tomoni, qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'linadi. SHu sababli qishloqda zamonaviy texnologiyaga ega xarakatchan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ochish hisobiga yangi ish joylarini tashkil etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani hal etilishi qishloqdagi xoxlovchilarning hammasi

ish bilan ta'minlash orqali qishloq qiyofasini, turmush madaniyatini tubdan o'zgartirib yuborish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga ham yordam beradi.

Namangan viloyatida instituttsional o'zgarishlar sharoitida tayyorlov tizimini takomillashtirish muammosi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Lekin mahsulotlar sotish bilan bog'liq kamchiliklar hali to'liq bartaraf etilgani yo'q. Iqtisodiy adabiyotlarda ular faqat rejalashtirishdagi noto'g'ri xisob-kitob bilan bog'liq tarzda izohlanadi. To'g'ri mahsulotlarni sotish bilan bog'liq nuqsonlar sodir bo'lishiga noto'g'ri xisob-kitoblar ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatayapti, ammo ular asosiy sabab emas. Mavjud uzilishlar, agar aytish joiz bo'lsa, o'sish va ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Rivojlanayotgan ishlab chiqarish ko'pgina yangi masalalarni (jumladan, mahsulot sotish sohasida ham) ilgari suradi. Butun ishlab chiqarish jarayoni barcha bosqichlarda bir tekis rivojlanishini taqozo qilganda, ham oraliq, ham pirovard mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha tuzilmaviy bo'g'inlar orasidagi iqtisodiy munosabat va aloqalar yuksakroq darajaga ko'tarilganda bu masalalarning dolzarbligi ortadi.

Viloyatda yangi aloqalar nafaqat mahsulot yaratganda, balki uni iste'molchigacha harakatlantirishda ham vujudga keladi. Bu esa ularning amaliy realizatsiyasini nazarda tutadi. Bunday realizatsiya almashuv munosabatlarini takomillashtirishda namoyon bo'ladi. Viloyat tayyorlov tizimining amaldagi yangi sifat darajasi realizatsiya qilinadigan mahsulotni hisoblash tizimi bilan ham bog'langan. An'anaviy jihatdan qishloq xo'jaligi korxonalaridan davlat tayyorlash tizimiga keltirilgan va odatda, natural ko'rinishda bo'lgan mahsulot tayyorlanadigan mahsulot hisoblanadi.

Bunday yondashuvga ko'ra, qisqa kuz davrida barcha o'simlikchilik mahsulotlarini bir vaqtning o'zida yig'ishtirish va tashish lozim. Bu ish kunidan foydalanishda tig'izlikka, barcha to'rdagi transport vositalarni transportning barcha turlarini me'yordan ortiq ishlatilishiga olib keladi. Tayyorlov tizimi esa bu davrda uzluksiz keltirilayotgan ko'p miqdordagi mahsulotni doim ham qayta ishlay olmaydi. Oqibatda mahsulot nobud bo'ladi, sifati pasayadi.

Viloyat qishloq xo'jaligi korxonalarida omborlar qurilsa, ba'zi turdagi mahsulotlarni yig'ishtirib olib, shaharlarga - tayyorlov tashkilotlariga jo'natish zarurati yo'qoladi. Muayyan mahsulot (don, sabzavot, meva va h.)larning bir qismi xo'jaliklarning o'zida saqlanishi va zarur holda iste'mol joyiga jo'natilishi mumkin. Ta'kidlab o'tamizki, tayyorlov ishlarini tashkil etishning bunday shakli ancha katta foyda keltiradi. CHunonchi: **birinchidan**, tayyorlov jarayonidagi tig'izlikni kamaytiradi, transportga ehtiyojni pasaytiradi, mahsulotning oqilona ishlatilishini ta'minlaydi, pirovard natijada xomashyo va iste'mol fondlari hajmini oshiradi; **ikkinchidan**, agrosanoat integratsiyasi, qishloq xo'jaligi korxonalarining bevosita o'zida qayta ishlash quvvatlari rivoji ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat natural xolida, balki qayta ishlangan ko'rinishda ham sotish masalalarini hal etadi. Bu pirovard maqsadlarga muvofiq keladi.

Amaliyotda esa mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan hududlardagi ko'pgina qishloq xo'jaligi korxonalari o'z mahsulotlarini natura ko'rinishida sotishayapti. Masalan, «Asnamtekstil» qo'shma korxonasi paxta tolasi yetishmasligi tufayli to'la quvvat bilan ishlaymayapti. Bu holat tayyorlov ishlarini rejalashtirish amaliyotida hisobga olinishi lozim.

Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarni tayyorlashni tashkil etish shakllari va usullarini takomillashtirish jarayonidagi yo'nalishlardan biri ularning iste'molchigacha harakatlanishini to'xtatuvchi tayyorlov tizimi bo'g'inlarini qisqartirishdir. Mavjud tayyorlov tizimining yirikligi va ko'p qirraliligi qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi, bu esa mahsulot bahosini oshiradi.

Viloyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojining zamonaviy bosqichi uchun bevosita aloqalar rivojini e'tiborga oluvchi bir qator tendentsiya (yo'nalish)lar xos. Bevosita aloqalar talablariga ixtisoslashgan va kontsentrlangan ishlab chiqarish to'laroq javob beradi. Tayyorlovchi u yoki bu mahsulotni yetkazib berishini bitta ishlab chiqaruvchi amalga oshirishidan manfaatdor. O'z navbatida, qishloq xo'jaligi korxonasi uchun bitta yoki kamida

minimal sondagi tayyorlovchiga ega bo'lish foydali. Bu mahsulotni yaxshiroq va kamroq xarajat bilan sotishga imkon beradi. Demak, bevosita aloqalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuv va konsentratsiya yo'lidan rivojlanishining muhim shartlari hisoblanadi.

Xo'jaliklararo kooperatsiya asosida ixtisoslashuv ko'p tarmoqli xo'jaliklar tugatilishiga olib keladi. Tor ixtisosdagi xo'jaliklar endilikda mahsulot sotish masalalarini hal qiladigan birlashmaga kiradilar. Bunday tashkilotda vazifaning bo'linishi kabi holat yuz beradi. Korxonalar - mahsulotni ishlab chiqarish, birlashma - uni sotish haqida bosh qotiradilar. Bu uzoq muddatli aloqalarni o'rnatishga o'tish uchun imkon beradi, u esa tayyorlov jarayonlarini tashkil qilishning butun tizimini tubdan yaxshilaydi.

Realizatsiya jarayonidagi bevosita aloqalarning keyingi rivoji Namangan viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi zamonaviy jarayonining boshqa ob'ektiv talablari tomonidan ham taqozo qilinadi. Realizatsiya jarayonida bevosita aloqalar tizimi qishloq xo'jaligi korxonalari va agrosanoat birlashmalarining mustaqilligini ifodalash shakllaridan biri hisoblanadi. Bevosita aloqalar orqali iste'molchi ishlab chiqarish jarayoniga yanada tezkor ta'sir o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Namangan viloyati tayyorlov korxonalari moddiy-texnika asosining mustahkamlanishi bilan bevosita aloqalarning rivojlanishiga ham ob'ektiv sharoitlar vujudga keladi. Chunki mahsulotni yetkazib berish shartlaridan biri tayyorlovchi uning nafaqat rejadagi miqdori, balki barcha ortiqcha qismini ham qabul qilishga tayyorligi hisoblanadi. Bunga esa, tayyorlovchi faqatgina saqlash inshootlari mavjud hollardagina muvofiq bo'ladi.

Nazarda tutish kerakki, realizatsiya jarayonida bevosita aloqalarning kelajakdagi rivoji mahsulot sifati ob'ektiv baholanishiga ko'maklashadi, hozirda esa ulgurji bazalar mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi o'zlarini «sug'urta» qilib, mahsulotlar hajmini pasaytirmoqdalar va chegirma foizlarini ataylab ko'tarmoqdalar.

Bevosita aloqalar rivoji zagotovkalarni tashkil etishning boshqa shakllari, jumladan, ulgurji savdo tizimi bilan ham oqilona qo'shilishi zarur. Ulgurji savdo har doim ham muomala jarayonini uzaytiruvchi bo'g'in hisoblanmaydi. Ishlab chiqarish konsentratsiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik oshgan va assortimenti kengaygan sharoitda ulgurji savdo bu turdagi mahsulotlarni realizatsiya qilishning samarador shakli bo'lib qoladi. U hosil bo'lgan iste'molchi talabidan kelib chiqib, mahsulotning oqilona taqsimotini ta'minlaydi.

Bevosita aloqalarni tashkil etishni yaxshilashda tayyorlov tashkilotlari tomonidan hech bo'lmaganda ba'zi turdagi o'simlikchilik mahsulotlarining bevosita dalaning o'zida qabul qilish ham alohida ahamiyatga ega. Bular dala ishlari tezligini pasaytiradi. Ma'lumki, yig'im-terim va topshirish ishlari hajmi ortganda yoz-kuz oylarida mahsulotni joyida qabul qilish bilan qishloq xo'jaligi korxonalarini sotish tashvishidan hatto qisman ozod qilinganda ham, ularda kuchlarni boshqa ishlarni tugatish uchun safarbar qilish imkoni kengayadi. Ammo ko'pincha «mahsulotni dalada qabul qilish» tushunchasi tayyorlov tashkilotlari o'z transportida mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri daladan olib chiqib ketadi, degan ma'noda tushuniladi. Bu yerda faqat ishning tashkiliy shakli ustida gap ketmoqda. Bunday soddalashgan yondashuv shunga olib kelmoqdagi, mahsulot sotishni tashkil etishning bu shakli hozircha keng tarqalmayapti. Lekin tashkiliy tomon bilan bir qatorda realizatsiyaning bu shakli iqtisodiy mohiyati jihatidan kam ahamiyatli emas. Mahsulotning butun partiyasini uning uchun avvaldan avans to'lab dalada qabul qilish haqidagi kelishuv har ikkala kontragentga o'zaro majburiyatlar yuklaydi. Tayyorlov tashkiloti mahsulot uchun avans to'lab, albatta, barcha imkoniyatlarini ishga solib, uni olib chiqib ketishga intiladi. Olingan pul avansi qishloq xo'jaligi korxonasini albatta avans uchun mahsulot bilan hisoblashga majbur qiladi.

Undan tashqari, mahsulot uchun avans berish bilan hisob-kitob qilish shakli pulni xo'jalik aylanmasiga nafaqat ertaroq kiritishga, balki ularni shu mahsulot turini yetishtirishda band bo'lganlarni moddiy rag'batlantirish uchun operativ ishlatishga ham imkon beradi.

Bevosita aloqalarning iqtisodiy mohiyati shunda ko'rinadiki, ular mahsulot sotishning katta kafolatini yaratish bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid narxiga kiritilgan barcha

potensial imkoniyatlarni yuzaga chiqarishning xolisona belgilari hisoblanadi, shu tariqa ishlab chiqarish unumdorligi oshirishining eng muhim omili sifatida ishtirok etadi.

#### **2.4. Namangan viloyati qishloq xujaligidagi kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari**

Istiqbolda Namangan viloyatida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, ushbu jarayon qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni to'laligicha isrof qilmasdan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Viloyatda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini yig'ib-terib olish, ularni yetishtirish va yalpi hosilni oshirishdagi eng so'nggi, mas'uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Viloyatda yetishtirilayotgan qishloq ho'jaligi mahsulotlariga ishlov berishni tashkil etish xam muhim ahamiyatga ega. CHunki biz yetishtirayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon talablari asosida ishlov bergan holda tayyorlashimiz bizning mahsulotlarni chet elga ko'p miqdorda va qimmatroqqa sotilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Mahsulotga tovar ishlov berishga quyidagi vazifalar kiradi:

- hosil yig'ib-terib olingandan keyin nes-nobud qilmasdan tashishni tashkil etish, tashishda transport vositalaridan to'g'ri foydalanish;
- mahsulotlarni omborxonaga, tayyorlov makonlariga va savdo shaxobchalariga o'z vaqtida o'z sifatini tushirmasdan yetkazish;
- dala sharoiti va omborxonalarda saqlash uchun joy usullarini to'g'ri tanlash;
- mahsulot turiga qarab idishlar tanlash va ularga mahsulot joylash;
- mahsulot joylashdan avval mahsulotlarni saralash va katta-kichiklikka ko'ra ajratish;
- texnik navlarni qayta ishlash korxonalariga o'z vaqtida, sifatini tushirmasdan jo'natish;
- saqlashda mahsulotlar sifatini oshirish;
- mahsulotlarni realizatsiya qilishni amalga oshirish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga tovar ishlov berishdan qo'zlangan eng asosiy maqsad ularning sifatini oshirishdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari hosilini o'z vaqtida yoki noto'g'ri yig'ib olinsa, mo'l hosil yetishtirishda o'tkazilgan barcha tashkiliy va agrotexnika tadbirlari natijasi yo'qqa chiqadi. SHuning uchun hosilni yig'ib olishni unumli tashkil etish va texnika tomonidan tushunib bajarish lozim.

Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari mahsulot hosili olingan sharoit, saqlash va o'tkaziladigan qo'shimcha tadbirlarga qarab har xil bo'ladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining oziq-ovqat va texnologik qiymati, usullari va mudatiga, hosilni yig'ib olgandan so'ng tovar ishlov berishga, tashish va saqlashga uzviy bog'liqdir. Mahsulotlarni miqdor jihatidan hamda sifatini tushirmasdan har bir turini eng qulay sharoitlarda saqlashga erishish mumkin. Bu sharoitlarni o'rganish tayyorlov korxonalarida mahsulotlarni tayyorlashni mukammallashtirishni o'z ichiga oladi hamda tayyorlashning nazariyasi va amaliyotining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu masalani hal etishda avval tayyorlash ob'ekti sifatida mahsulotning xususiyatlariga e'tibor beriladi. SHunga asoslanib, uning iste'mol xususiyatlarini yuqori saqlagan xolda usul va rejimlari aniqlanadi. Ammo bunda masalaning iqtisodiy tomoni ham inobatga olinadi. Masalan, mahsulotni tayyorlash uchun a'lo sharoit yaratish mumkin, lekin bu ortiqcha harajat hisobiga erishiladi. Harajatlarni to'liq qoplash uchun esa sotishda faqat narxni ko'tarish hisobiga erishiladi.

SHuning uchun amaliyotda mahsulotlarni tayyorlashning turli usullarini qo'llashda ularning xususiyatlari, bahosi, xo'jalik imkoniyati va mahsulotning har bir turini tayyorlash uchun tegishli texnik zamin yaratish zarur. SHuningdek, harajatlarni ortishi bozor iqtisodiyoti sharoitida, mahsulotlarning qanday sifati yuqori bo'lishidan qat'iy nazar raqobatbardoshligini susaytiradi.

Oziq-ovqatga taalluqli mahsulotlar fondini ko'paytirishning aniq manbai - don, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini terish, tashish, saqlash va qayta ishlashda

isrofgarchilikni kamaytirishdir. Bu vazifani xal etishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va sotishga tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi xirmon, konteyner sektsiya, boshqariladigan gaz, muxitli, sovutkichli-omborlarda va oz qismi vaqtinchalik omborlar-xandak va uyumlarda saqlanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik tayyorlov korxonalari o'zini iqtisodiy tomondan oqlamay qoldi. Bunga bir qator qiyinchiliklar, yo'l haqini oshishi, boshqa respubliklarda mahsulotlar kelishini to'xtashi va boshqa xollar sabab bo'lmoqda. SHuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazishda yuqorida qayd etilgan tayyorlov korxonalari to'g'ridan-to'g'ri xo'jaliklar tarkibida borini jihozlab unumli foydalanish, bo'lmagan taqdirda yangisini yaratish masalasi qo'ngdalang bo'lmoqda. SHunday korxonalarni xo'jaliklar tarkibida tashkil etish nafaqat mahsulotning isrof bo'lishini oldini olsa, ikkinchidan aynan shu xo'jalik uchun yaxshi iqtisodiy samaralar beradi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrda xo'jalikda yoki bir necha xo'jalik kooperatsiyasi asosida o'rta hajmdagi tayyorlov korxonalari quvvatlarini yaratish va bu korxonalarni mahsulot yetishtiriladigan xudud yaqiniga joylashtirilganligi ma'qul. Xuddi shu nuqtai nazaridan qayta ishlash korxonalarini ham mahsulot yetishtiriladigan xo'jaliklarga yaqin bo'lsada, bu o'z yo'lida xom ashyoni yetkazib berishda oddiy, moslashtirilgan, arzon transport vositalaridan foydalanish imkonini beradi va shu bilan qayta ishlangan mahsulotning tannarxini keskin tushishga olib keladi.

## Xulosa

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i alohida ahamiyatga ega. Chunki, qishloq xo'jaligi har doim ham mamlakatni moddiy boyliklar bilan ta'minlovchi buyuk zamin, mehnat maydoni sifatida o'zini namoyon qilgan.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan agrar sohada yangicha iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar joriy etilganligi natijasida yerlar haqiqiy egalari-fermerlarga topshirildi. Bugun mamlakatimizda fermerlik rivojiga katta e'tibor qaratilayotganligi tufayli yerga, mehnatga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga yuz tutmoqda va u erishilayotgan yutuqlarda namoyon bo'lmoqda. Bug'doy, un, meva-sabzavot, quruq mevalar, uzum, poliz mahsulotlari kabi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizning ichki ehtiyojlari to'liq ta'minlanib, ayni vaqtda eksport ham qilinmoqda.

Qishloq sharoitida aholining shaxsiy tomorqasi va dehqon xo'jaliklarida qora mollar sonini ko'paytirish, mazkur sohadagi servis xizmatlari tarmog'ini takomillashtirish hamda chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilayotgani, xususan, oilalarga chorva mollari tarqatilishi qishloq ahli uchun katta ko'mak bo'lishi barobarida go'sht, sut va sut mahsulotlari hajmining ko'payib, narxi arzonlashishiga turtki bo'lmoqda. Xususan, sohaga oid qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, mustahkamlash, yangi Qonunlar qabul qilish, tegishli qonun hujjatlariga, asosan Yer kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishni taqozga etmoqda. Bunda fermerlarni qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy siyosiy maqomini mustahkamlash yuzasidan ustuvor vazifalarni hal etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, fermerlarni nafaqat mulkdor, balki aholi turmush darajasini yuksaltirishda katta salohiyatga ega mulkdorlar sinfi sifatida qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlashda yetakchilik qilishini ta'minlash davr talabidir.

1. Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim sohasi sifatida sanoatni xom ashyo va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. SHu boisdan qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

2. Qishloq xo'jaligini isloh qilishda yerga mulkchilik, davlat yerining meliorativ holatini yaxshilash, qishloqda boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish, xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirish, bozor, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarini jadal rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar deb belgilangan.

3. Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar o'z ichiga yerdan foydalanish, suvdan foydalanish, mulk, moliya-kredit soliq va narx-navo islohotlarini oladi.

4. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari to'rt bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishning asosiy me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda zarar bilan faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklarini tugatish, ular negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish jarayonlari rivojlandi. Uchinchi bosqichda fermer xo'jaliklarini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirildi. To'rtinchi bosqichda fermer xo'jaliklarining yer uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratishga kirishildi.

5. Qishloq va suv xo'jaligi sohasi korxonalari faoliyatini rivojlantirish, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish asosida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

6. Namangan viloyatida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning maqsadli Dasturni ishlab chiqishning zarurligi ta'kidlangan holda, bunday dasturning maqsadi, hozirgi holatning tahlili va vatanimizdagi va xorijiy tajribalarni umumlashtirish negizida viloyat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishiga erishishga yo'naltirilgan bozorlar tizimining asosiy elementlarini va bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda uni amalga oshirishni ta'minlashni asoslashga qaratilgan.

7. Amaliyotda umumkorxonalar va uning tarkibiy tuzilmalari bo'yicha moddiy rag'batlantirish fondini shakllantirishning turli usullardan foydalaniladi. Moddiy rag'batlantirish fondini shakllantirishning me'yorlashtirish usulini qo'llash bu vazifalarni samarali hal etishga imkon beradi. Aynan shu usul bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning aksariyat kompaniyalarida qo'llanilmoqda. Biroq bu usul quyidagi shartlar asosida amal qilishi mumkin:

birinchidan, me'yorlar mustahkam va uzoqmuddatli bo'lishi lozim. U faqatgina jamoaning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hollarda, ya'ni ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgartirilishi mumkin.

8. Agrosanoat integratsiyasi samaradorligini oshirish bir tomondan, oldindan o'rnatilgan me'yorlar doirasida, shuningdek, undan oshiqcha bo'lgan mehnat sarflari uchun xam moddiy taqdirlashni, boshqa tomondan esa, boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida ishlovchilar manfaatlariga ta'sir etish vositalarining murakkab majmuini va ularni harakatga keltirishning o'ziga xos mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

9. Agrosanoat integratsiyasida mulkchilik shakllari o'rtasida bozor raqobati amal qiladigan sharoitda boshqarishning muhim masalalaridan biri sifatida ishlovchilarning butun kuch g'ayratlarini ishga solib, mehnat natijalarini yaxshilash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdan yuqori darajada moddiy manfaaddor bo'lishiligini ta'minlashga qaratilgan mehnatga samarali undashning eng maqbul uslublari va shakllarini ishlab chiqish hamda qo'llashda namoyon bo'ladi.

10. Meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish asosida, yuqori darajada sanoatlashgan va eksportga mo'ljallangan qayta ishlash tizimini barpo etish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'lamini oshirish agrosanoat korxonolari samaradorligining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998.
4. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.
5. Karimov I.A. Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. -325 b.
10. Farmon. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni.
11. Farmon. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi PF-3342-sonli Farmoni.
12. Qaror. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi 476-sonli Qarori.
13. Qaror. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 607-sonli Qarori.
14. Abduvasiqov A. Samaradorlik darajasi: unda hududiy guruhlanish ko'zga tashlanmoqda// J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-2004. № 10. 7-b.
15. Abdujamilova M.M. Agrar sohada marketing tizimini shakllantirish //Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi: respublika ilmiy-amaliy seminari maqola-lar to'plami. – T.: 2005. 218-220-b.
16. Abdullaev Yo. Statistika nazariyasi. Darslik.-T.: O'qituvchi, 2002. – 592 b.
17. Abdullaev O. Jumhuriyatlararo agrosanoatni tashkil etish muammolari.-T.: Mehnat, 1991. – 224 b.
18. Abdullaev O. Namangan viloyati (tabiati, aholisi, xo'jaligi).-Namangan: NamDU, 1995. – 149 b.
19. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. Monografiya.- Namangan: NamDU, 2000. – 291 b.
20. Abdullaev S. Yer – nodir resurs //O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy geografik siyosati: muammolar va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2-qism. – Namangan, 2001. 131-133-b.

21. Abdusalyamov M.A. Printsipy, podxody i osnovnye rezultaty pervogo etapa ekonomicheskix reform v Uzbekistane //Strategiya reform i makroekonomicheskaya stabilizatsiya/ M.A.Abdusalyamov, V.A.Golyshev, R.K.Karimov i dr.-T.: UNDP, 1996. S. 172-178.
22. Akramov B., Siddiqov Z., SHeripbaeva U. Qishloq xo'jaligida turli xo'jalik yuritish sharoitida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi //Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish: halqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma'ro'zalar to'plami. – T.: 2004. 76-78-b.
23. Демьяненко В., Рылько Д. Проблемы формироваия и функционироваия рынка сельскохозяйственных земель.-М.: God planety, 1998. – 368 s.
24. Er huquqi. Darslik/ M.B.Usmonov, M.H.Rustamboev, Y.O.Jo'raev va b.; M.H.Rustamboevning tahriri ostida.-T.: TDYuI, 2002. – 246 b.
25. Jumaeva G.J. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish muammolari //Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish: xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma'ro'zalari to'plami.-T.: 2004. 83-84-b.
26. Jumaev O.T. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida kooperatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2004. – 29 b.
27. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O'AJBNT Markazi, 2003. – 455 b.
28. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma/ A.S.Soliev, E.A.Ahmedov, R.Y.Mahamadaliev va b.-T.: Universitet, 2003. – 304 b.
29. Mahkamov I., G'aniev M. Inqiroz oqibatlarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 177-179 b.
30. Mahkamov I., Ergashev J. Kasanachilik- aholi bandligi va daromadlarni oshirishning muhim omili. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 215-216 b.
31. Mo'minov U., Baxriddinov J., Isroilov D. Agrar sektorda kooperatsiya munosabatlari rivojlanishining jahon tajribasi. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 181-182b.
32. Mo'minov SH.X. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekiston agrar sektor eksport salohiyatini rivojlantirish. (Meva-sabzavotchilik quyi majmuasi mahsulotlari misolida): Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2005. – 22 b.
33. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari: Iqtisod fan. dok. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2001. – 40 b.
34. Nazarova H.M., Abdirashidov A.A. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'rni //Jahon xo'jali-gining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbar-doshligi: respublika ilmiy-amaliy seminari maqolalar to'plami.-T.: 2005. 181-183-b.
35. Novoselev A.S. Региональные рынки. Учебник.-М.: INFRA-M, 1999. – 479 s.
36. Raximov B.I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari bozorini rivojlantirish: Iqtisod fan. nom. dis. ... avtoref.-T.: O'zBIITI, 2005. – 30 b.
37. Oripov M.A. Ne poteryat' – znachit priumnojity // Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana. №10, 2000, s.14-15.
38. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorolari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.

39. Sotvoldiev N.J. Agrar bozorlar shakllanishi va rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari (Namangan viloyati misolida): Iqt. fan. nom. dis. ... avtoref.-T.: O'zMU, 2006. – 24 b.
40. Soliev A.S., Nazarov M.N. O'zbekiston qishloq joylari geografiyasi – T; Universitet, 2009.
41. Soliev A.S., Mirzaahmedov H.S., Jumaxanov SH.Z. Qo'shma korxonalar geografiyasi. Namangan. 2006. -165 b.
42. O'zun V.Ya. Privatizatsiya zemli i reorganizatsiya sel'skoxozyaustvennykh predpriyatiy: idei, mexanizmy, rezultaty, problemy //Reorganizatsiya sel'skoxozyaustvennykh predpriyatiy: ix effektivnost' i ustoychivoe razvitie: materialy seminaru Golitsyno.-M.: 1999. – S. 36-53. (<http://www.iet.ru/afe/publications.html>).
43. Uspenskiy V.A. Agrarnyy ryнок Rossii //Mikroekonomika: teoriya i rossiyskaya praktika/ A.Yu.Yudanov, N.N.Dumnaya, V.A.Uspenskiy i dr.-M.: ITD «Kno Rus», 2002. S. 463-470.
44. Egamberdiev F.T. Bozor mexanizmi qanday shakllanmoqda// J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – T.: 2001. № 1. 24-25-b.
45. Yastrebova O.K. Vvedenie v agrobiznes. – M.: Izd. Moskovskogo Universiteta, 1994. – 264 s.
46. Qayumov A., Nazarova H., Egamberdiev F., Yakubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: O'zMU, 2004. – 115 b.
47. Qurbonov E.Q. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va yechimlari //Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish: halqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma'ro'zalari to'plami.-T.: 2004. 14-17-b.
48. G'ofurov M., Xolmurodov M., Xusanov Q. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar.- T.: MEDIA LAND, 2001. – 100 b.
49. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston.-T.: Mehnat, 2001. – 248 b.

#### **Internet saytlar**

1. UFSInvestmentCompany: Strategiya na 2012 god. – <http://bonds.finam.ru>
2. <http://www.bearingpoint.uz> – “O'zbekiston iqtisodiyoti” qo'llanmasining veb-sayti
3. <http://goldenpages.uz> – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
4. <http://rea.ru> – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
5. <http://ballov.ru> –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
6. <http://bankreferatov.ru> –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.